

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

**ISHLAB CHIQARISH
JARAYONLARINI
AVTOMATLASHTIRISH**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Qayta nashr

**TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2016**

UO'K 681.51(075)

KBK 32.965

Sh-77

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalarini faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

O.F.Safarov – Buxoro muhandislik texnologiya instituti, «Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya tizimlari» kafedrasи professori, texnika fanlari doktori;

B.T.Hamidov – Toshkent kimyo texnologiya instituti «Informatika, avtomatlashtirish va boshqaruv» kafedrasи mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Shomurodova D. M.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish: o'quv qo'llanma/ D.M. Shomurodova, A.U. Usmonov, M.I. Abdurahmonova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016, –128 b.

O'quv qo'llanmada ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari, avtomatik sistemalar to'g'risida umumiy ma'lumot, avtomatik rostlagichlar, ijro etuvchi mexanizmlar va rostlovchi organlar hamda sistemalarining analizi to'liq yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, oliy o'quv yurtlari talabalari hamda ishlab chiqarishda ishlayotgan muhandis-mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

UO'K 681.51(075)

KBK 32.965

ISBN 978-9943-4765-0-9

© D. M. Shomurodova, A.U. Usmonov,
M.I. Abdurahmonova
© Orig. mакет G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaа ijodiy uyi, 2012-y.
© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016-y.

SO‘ZBOSHI

Respublikamizda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ishlab chiqarish unumdorligining tez va to‘xtovsiz o‘sishi asosiy hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Bunday o‘sishning bosh omillaridan biri ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda to‘liq mexanizatsiyalashtirish bo‘lib, bu bugungi kunda davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishidir.

To‘liq mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish deganda shunday ishlab chiqarish jarayoni tushuniladiki, unda barcha operatsiyalar mashina va mexanizmlar yordamida bajarilib, ularni boshqarish esa, odamning bevosita ishtirokisiz ishlaydigan maxsus qurilmalar – avtomatlar zimmasiga yuklanadi.

Agar ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish jismoniy mehnatni yengillashtirsa, avtomatlashtirish ishchini mashina va mexanizmlarni boshqarishdan ozod qiladi. Shu bilan bir qatorda avtomatlashtirish bevosita mehnat unumdorligini va mahsulot sifatini, mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish madaniyatini oshishiga olib keladi. Ammo avtomatlashtirish vositalarining narxi, ularni sozlash va rostlash uchun sarflanadigan xarajatlar ko‘p hollarda deyarli yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish faqat iqtisodiy barqaror sharoitlarda hamda odamlarni og‘ir va zararli mehnatdan ozod qilish maqsadlarida qo‘llanilishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bu barcha qo‘l bilan bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalashtirish hisoblanib, shuningdek, nazorat o‘lchov asboblarini keng qo‘llash demakdir.

Sanoatning barcha tarmoqlari ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat o‘lchov asboblari bilan ta’minlash, texnologik jarayonlarning borishi to‘g‘risida axborot olishga, ularga o‘zgartirishlar kiritish hamda olinadigan natijalarni yaxshilashga imkon yaratadi.

Ta‘lim sistemasini tubdan o‘zgartirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida «Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish» fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmasi kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bundan ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan muhandislar, oliy o‘quv yurtlari talabalari foydalanishlari mumkin.

Mualliflar tomonidan tayyorlanib, nashrga berilgan «Avtomatika asoslari» o‘quv qo‘llanmasida sistemanini tashkil etuvchi o‘lchov asboblari, o‘lchov o‘zgartgichlari, ikkilamchi asboblar, relelar, kuchaytirgichlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berilganligi bois «Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish» o‘quv qo‘llanmasida ular takrorlanmadи.

O‘quv qo‘llanmaning shakllanishida o‘zlarining qimmatli maslahatlarini bergen Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoati instituti «Texnologik mashinalar, jihozlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish» kafedrasi jamoasiga hamda kafedra mudiri texnika fanlari doktori, professor O.F.Safarovga mualliflar o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

KIRISH

Ishlab chiqarish jarayonlarining ish unumdorligi va mahsulot sifatini oshirish yo'llaridan biri elektron hisoblash mashinalari, robot va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdir. Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarida, jumladan oziq-ovqat hamda kimyo sanoatida alohida mashina, agregat mexanizmlarni avtomatlashtirishdan sex, texnologik bo'lim va zavodlarni to'liq avtomatlashtirishga o'tilayapti. Natijada texnologik jarayonlarning boshqarishni avtomatlashtirilgan sistemalari (TJABS), korxonalarning boshqarishni avtomatlashtirilgan sistemalari (KABS) hamda to'liq tarmoqlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan sistemalari (TTBAS) yaratilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda odam qo'l mehnatini maxsus avtomatik qurilmalar ishi bilan almashtirish jarayoniga *avtomatlashtirish* deyiladi.

Berilgan xomashyo yoki yarim fabrikatdan tayyor mahsulot olish uchun yo'naltirilgan ta'sirlar to'plamiga *ishlab chiqarish jarayoni* deyiladi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonini quyidagi asosiy elementlarga ajratish mumkin:

1. Oddiy ishchi jarayonlar.
 2. Boshqarish operatsiyalari.
 3. Nazorat operatsiyalari.
- Oddiy ishchi jarayonlari quyidagilardan iborat:
- a) sof ishchi jarayonlar;
 - b) o'rnatish operatsiyalari;
 - c) transport operatsiyalari;
 - d) xizmat ko'rsatish operatsiyalari.

Masalan, non ishlab chiqarish jarayoni sof ishchi jarayoni bo'lib, xamirni bo'lish apparatida xamir zuvalalarini olish hisoblanadi. Bu yerda o'rnatish operatsiyasida apparatning ma'lum tur yarim fabrikat olish uchun ishchi organlarini o'rnatish tushunilsa, transport operatsiyasida esa xamir zuvalalarini keyingi apparatga (masalan, xamir maydalash apparatiga) transporter orqali uzatish tushuniladi, xizmat ko'rsatish operatsiyasida esa mashinani o'z vaqtida tozalash yoki yog'lash zarur.

Boshqarish operatsiyasi ikki turga bo'linadi:

a) jarayonni normal boshqarish;

b) mashina va mexanizmlarni berilgan talablarni bajarish uchun tuzatish yoki moslash bilan bog'liq o'rnatish operatsiyalari.

Nazorat operatsiyasi quyidagilardan tuzilgan:

a) jarayon natijalarini berilgan talab bilan muvofiqligini tekshirish;

b) jarayon borishini berilgan talabdan o'zgargan vaqtida (jarayon kattaliklarini normal qiymatdan o'zgargan vaqtida yoki avariya holatlarida) himoyalash operatsiyasi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshi olib borish uchun nazorat hamda boshqarish operatsiyalari bir-biri bilan bog'liq olib borilishi zarur. Chunki nazorat operatsiyasini natijalari asosida boshqarish operatsiyalari yaratiladi. Ishlab chiqarishning borishida odamning ishtiroti jarayon borishini nazorat o'lchov asboblari yordamida kuzatish hamda mashina va mexanizmlar ishini boshqarishdan iboratdir.

Avtomatlashtirish iyerarxik strukturaga ko'ra 3 bosqichda olib boriladi:

1-bosqich. Xususiy avtomatlashtirish.

2-bosqich. Kompleks avtomatlashtirish.

3-bosqich. To'liq avtomatlashtirish.

Xususiy avtomatlashtirishda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan asosiy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bunda alohida agregat, apparat yoki texnologik qurilmlar alohida-alohida avtomatlashtiriladi.

Kompleks avtomatlashtirishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Alohida sexlar, texnologik bo‘lim va texnologik tizimlarini avtomatlashtirish kompleks avtomatlashtirishning mazmuni bo‘lib hisoblanadi.

To‘liq avtomatlashtirishda esa bir-biriga bog‘liq asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bunda ishlab chiqarish korxonasi to‘liqligicha avtomatlashtiriladi (zavod-avtomat, sex-avtomat, restoran-avtomat va hokazolar).

Avtomatik boshqarish nazariyasining asosiy tushunchalari

Ilmiy-texnika taraqqiyotining samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdir.

Yangi mahsulot (buyum) tayyorlash uchun yo‘nalgan ishlab chiqarish jihozlari kompleksi moddiy va energetik oqimlar xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotga ishlov berish va qayta ishlash usullarining vaqt bo‘yicha ketma-ket almashishiga texnologik jarayon deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri kechishi yoki optimal olib borilishi uchun sistemani boshqarish algoritmiiga muvofiq ularga aniq ta’sirlar yuborilishi talab qilinadi. Berilgan funksionallash algoritmini bajarish uchun boshqariladigan obyektga tashqaridan beriladigan ta’sirlar xarakterini aniqlaydigan yozuvlar to‘plamiga boshqarish algoritmi deyiladi.

Biror bir qurilmada (boshqariladigan obyektda) yoki sistemada ishlab chiqarish jarayoni to‘g‘ri bajarilishini


ta'minlaydigan yozuvlar to'plamga funksionallash algoritmi deyiladi.

Har bir sistemada boshqaruvchi va boshqariladigan asosiy qismlar bo'lib, ular o'rtasida to'g'ri va teskari bog'lanishlar mavjud.

Kibernetika – boshqarish maqsadida qabul qilish, saqlash va qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan har qanday tabiatli sistemani o'rGANADIGAN fan. Uning predmeti esa boshqarish qonunlarini o'rGANISHdir.

Kimyo-fizikaviy jarayonlar va ularni ishlash uchun kerak bo'lgan qurilmalar to'plamiga sistema deyiladi.

Sanoatda sistema texnologik jarayon, agregat, mashina, apparat, qurılma, ishlab chiqarishni nazorat va boshqarish qurilmalarini o'z ichiga oladi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonini avtomatik boshqarish sistemasi bir-biri bilan uzviy bog'langan qismlardan iborat: Texnologik boshqarish obyekti (TBO) va boshqarish qurilmasi (BQ).



I-rasm. Texnologik obyektlarni avtomatik boshqarish sistemasining struktura sxemasi.

Avtomatik sistemalarni kichik va katta sistemalarga bo'lish mumkin. Kichik sistemalar ishlab chiqarish jarayoni xossalari bilan aniqlanib, u bilan chegaralanadi. Katta sistemalar esa

kichik sistemalardan son va sifat jihatidan farq qilib, kichik sistemalar to‘plamidan iboratdir.

Hozirgi zamon hisoblash texnikasi va avtomatik qurilmalarning rivojlanishi natijasida texnologik jarayonlarda avtomatlashtirilgan boshqarish sistemalari TJABS ni qo‘llash talab qilinmoqda.

Texnologik boshqarish obyekti (TBO) – texnologik jihoz va unda ishlab chiqarish jarayoni reglamentiga muvofiq ravishda kechadigan texnologik jarayonlar to‘plamidir. TBO ga quyidagilar kiradi:

1. Texnologik agregat va qurilma (qurilmalar guruhi).
2. Sexlar yoki texnologik maydonlar.
3. Ishlab chiqarish majmuasi.

Qabul qilingan boshqarish kriteriyasiga muvofiq texnologik jarayonlarni boshqarish uchun qo‘llaniladigan qurilma *texnologik jarayon avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi* (TJABS) deyiladi. *TJABS boshqarish kriteriysi* – boshqarish ta’siri natijasida texnologik obyektning sifatini sonli aniqlaydigan nisbatdir. (Masalan, mahsulot tannarxi, ish unumdorligi, sifat yoki chiqariladigan mahsulotning texnik ko‘rsatkichlari).

I BOB. AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMALARI

1. 1. ASOSIY TUSHUNCHА VA QOIDALAR

Texnologik jarayonlarda odamlarning ishtirok etishiga ko‘ra avtomatlashtirishni quyidagi larga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik rostlash va avtomatik boshqarish.

Avtomatik nazorat – texnologik jarayon haqida operativ ma’lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uni qayta ishslash uchun kerakli bo‘lgan sharoitlarni ta’minlaydi.

Avtomatik nazorat sistemasi (1.1-a rasm) o‘lchanadigan kattalikni berilgan qiymati bilan taqqoslab, natijani o‘lchaydi. O‘lchanadigan kattalik X_1 , nazorat obyekti NO dan datchik D ga beriladi va qulay bo‘lgan X_2 qiymatga o‘zgartiriladi. X_2 signal taqqoslash elementi TEda X_0 etalon signal bilan taqqoslanadi. Etalon signal X_0 topshiriq bergich TB dan beriladi. Taqqoslash natijasida hosil bo‘lgan X_3 signal o‘lchash asbobi O‘A da o‘lchanadi. Avtomatik nazorat ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishning birinchi pog‘onasi hisoblanadi. Avtomatik nazorat sistemasi quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:


- ishlab chiqariladigan mahsulotni va sarflanadigan energiyaning hisobini olish;
- issiqlik, bosim, elektr toki va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarining kattaliklarini tekshirib turish;
- xizmat ko‘rsatuvchi shaxsni ishlab chiqarish jarayonini borishi to‘g‘risida ogoh qilish (signallash).

Avtomatik rostlash-texnologik jarayonining rostlanadigan kattaliklarini avtomatik rostlagichlar yordamida texnologik jarayon reglamentida belgilangan qiymatda saqlab turadi yoki

oldindan berilgan qonun bo'yicha o'zgartiradi. Bu holda odam faqat rostlash sistemasining to'g'ri ishlashini nazorat qiladi.

Avtomatik rostlash sistemasi – yopiq dinamik sistema bo'lib (1.1-b rasm) teskari bog'lanishga egadir. Bu yerda taqqoslash elementiga datchikda o'zgartirilgan X_2 va topshiriq bergichdan X_0 signallar taqqoslanadi, natijasi avtomatik rostlagichga beriladi. Bu natija $X_3 = X_0 - X_2$ ga tengdir. Avtomatik rostlash jarayonida shunday rostlovchi ta'sir ishlab chiqarilishi kerakki, natijada X_3 nolga yoki eng kichik songa intilsin ($X_3 \rightarrow 0$).

Avtomatik boshqarish – texnologik operatsiyalarni belgilangan ketma-ketlikda avtomatik ravishda bajarilishini va boshqarish obyektiga nisbatan ta'sirlarning muayyan mutasilligini topshiriq bergichdan keladigan signal bo'yicha




1. 1-rasm. Avtomatik sistemalarning funksional sxemalari.

- avtomatik nazorat sistemasi;
- avtomatik rostlash sistemasi;
- avtomatik boshqarish sistemasi.

ishlab chiqishdan iborat. Boshqaruvchi qurilma Bosh Q X_0 signalni qabul qilib uni boshqarish signali X_1 ga aylantiradi va bajaruvchi qurilma BQ orqali boshqarish obyekti BO ga ta'sir qiladi (1.1-d rasm).

1. 2. AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMASINING STRUKTURASI

Har bir texnologik jarayon texnologik kattaliklar deb ataladigan o'zgaruvchan fizik va kimyoviy kattaliklar (bosim, temperatura, namlik, konsentratsiya va hokazolar) bilan xarakterlanadi. Quyidagi sxema bo'yicha avtomatik rostlash sistemasi elementlarini ko'rib o'tamiz:



1.2-rasm. Bir konturli berk avtomatik rostlash sistemasining funksional sxemasi.

Qiymatini stabillash yoki bir tekisda o'zgarishini ta'minlash zarur bo'lgan kattalikka *rostlamuvchi kattalik* deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning qiymatini stabillash yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgarishini ta'minlaydigan asbob *avtomatik rostlagich* deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning ayni paytda o'lchanigan qiymati *rostlamuvchi kattalikning hozirgi qiymati* X_h deyiladi.

Rostlanuvchi kattalikning texnologik reglament bo‘yicha ayni vaqtda doimiy saqlanishi shart bo‘lgan qiymati *rostlanuvchi kattalikning berilgan qiymati* X_b deyiladi. Texnologik reglament rostlanuvchi kattalikning hozirgi va berilgan qiymatlarini vaqtning har bir onida teng bo‘lishini talab qiladi.

$X=X_b - X_h$ rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishi yoki xato deb ataladi. Amalda ko‘pincha xomashyoning sarfi va tarkibi, apparatlardagi temperatura, bosim va boshqa turli kattaliklarning o‘zgarishi kuza tiladi. Texnologik jarayonning maqsadga muvofiq ravishda, oqib o‘tishiga teskari ta’sir ko‘rsatuvchi hamda sistemalar-dagi moddiy va energetik balansni buzuvchi o‘zgaruvchilar g‘alayonlamuvchi ta’sirlar deb ataladi.

Har bir boshqarish sistemasida *kirish* va *chiqish* kattaliklari bo‘ladi. Kirish kattaliklarga xomashyoning boshlang‘ich holatini xarakterlovchi o‘zgaruvchi hamda vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan uskuna kattaliklari, texnologik jarayonning oqib o‘tishini aniqlovchi o‘zgaruvchilar kiradi. Kirish kattaliklari rostlanadigan va rostlanmaydigan bo‘lishi mumkin.

Chiqish kattaliklariga chiqariladigan mahsulot sifatini (kimyoviy tarkib, zichlik va boshqalar) xarakterlovchi ko‘rsatkichlar, shuningdek, hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi gan texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar kiradi.

Moddiy va energetik balansa riosa qiladigan mashina yoki apparat *rostlanuvchi obyekt* deyiladi.

1.3. TEXNOLOGIK JARAYONLARNING AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARISH SISTEMALARI

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish ikki turda gi avtomatik sistemalarni rivojlanishi bilan bog‘liq.

Birinchi turdag'i sistemada agregat, texnologik maydon, sex yoki butun ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashiriladi.

Ikkinci turdag'i avtomatlashirish sistemasi esa tashkiliy-iqtisodiy jarayonlar yoki ishlab chiqarish birlashmalari hamda tarmoqlari respublika miqyosidagi jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq.

Birinchi tur avtomatlashirish sistemalari TJ ABSlari yaratilgandan so'ng *lokal avtomatlashirish sistemalari* deb yuritila boshlandi.

Texnologik jarayonlarni lokal avtomatik boshqarish sistemasiga quyidagilar kiradi: nazorat, rostlash, stabillash, dasturli boshqarish, signallash, blokirovka, texnologik agregatlarni avariyyadan himoyalash sistemalari.

Avtomatik boshqarish sistemalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Bir chiziqli avtomatik rostlash.
2. Kaskadli va programmali rostlash.
3. Ko'p bog'liqli avtomatik rostlash.
4. Logik boshqarish (blokirovka).
5. Agregat texnologik maydon va boshqa podsistemalarni o'zaro bog'liq sistemalarning munosabatda ishlashini boshqarish.
6. Statik optimal boshqarish.
7. Dinamik optimal boshqarish.
8. Avtomatik programmali logik boshqarish.
9. Sistemaning algoritm va kattaliklarini o'zgartirish bilan avtomatik boshqarish.

1.4. TJ ABS FUNKSIYASI, STRUKTURASI VA KLASSIFIKATSIYASI

TJ ABS informatsion, boshqaruvchi va yordamchi funksiyalarga bo'linadi.

Texnologik boshqarish sistemasi – holati to'g'risidagi axborotni to'plash, qayta ishlash va saqlash hamda bu


axborotni operativ personalga yoki keyingi qayta ishlashga uzatish TJ ABSsini *informatsion funksiyasi* deb ataladi. (Masalan, operator chaqirig'i bo'yicha asosiy texnologik kattaliklarni o'lchash, qayd qilish, ularni berilgan qiymatlardan o'zgarishini aniqlash, avariya holatlarini signallash).

TJ ABS *boshqarish funksiyasi* – bu TBO ga yo'naltirilgan boshqaruvchi ta'sirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bularga texnologik reglament bo'yicha jarayon kattaliklari qiymatini stabillash, jarayon rejimini dasturli o'zgartirish, optimal boshqarish, signallash va boshqalar kiradi.

Sistema ichidagi masalalar yechimini ta'minlaydigan funksiyalarga TJ ABSni *yordamchi funksiyasi* deyiladi. (Masalan, berilgan algoritmnini ta'minlash, texnik qurilmalar ishini tekshirish, axborotlarni saqlash va hokazo).

Odamning avtomatlashtirishda qatnashishiga ko'ra, TJ ABS ning quyidagi turlari mavjud:


1. Qo'l bilan boshqarish rejimidagi ABS.



1.3-rasm. Qo'l bilan boshqariladigan avtomatlashtirilgan sistema.

Qo'l bilan boshqariladigan TJ ABSda texnik va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishlari to'g'risida axborotni texnik qurilmalar sistemasi to'plab, qayta ishlaydi. Boshqaruvchi ta'sirni esa odam ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

2. «Maslahatchi» rejimidagi ABS




1.4-rasm. «Maslahatchi» rejimda ishlaydigan ABS.

«Maslahatchi» rejimida ishlaydigan TJ ABS da texnik qurilmalar kompleksi kelib tushadigan axborotlarni analiz qilish natijasida optimal boshqarish to'g'risida takliflarni (maslahat) ishlab chiqadi uni esa operator-texnolog amalga oshiradi.

3. Boshqarishni «supervizor» avtomatik rejimi

Boshqarishni «Supervizor» avtomatik rejimda ishlaydigan sistemada (1.5-rasm) texnik qurilma kompleksi (TQK) avtomatik ravishda rostlagichning (RQ) tuzatish koeffitsiyentlarini TBO da kechayotgan texnologik jarayonning optimal qiymatlarini ta'minlaydigan chegaralarini aniqlaydi. Universal hisoblash mashinasi (UHM) ga TBO to'g'risidagi hamma ma'lumotlar to'planib berilgan algoritm asosida rostlanayotgan kattalik berilgan qiymatni hisoblab, rostlash qurilmasi RQ ga beradi. RQ ga rostlanayotgan kattalikning hozirgi qiymati




1.5-rasm. «Supervizor» avtomatik rejim.

ham berilib, ular o‘rtasidagi farq (ΔX) aniqlanadi. Rostlagich ΔX ni yo‘qotishga yo‘naltirilgan rostlovchi ta’sirni ishlab chiqib ijro etuvchi mexanizm IM ga uzatadi. U esa o‘z navbatida rostlovchi organ RO ni harakatlantirib, bevosita TBO ga ta’sir etadi.

Bevosita sonli avtomatik boshqarish sistemasida (1.6-rasm) TQK bevosita ijro etuvchi mexanizmga ta’sir etib, rostlovchi qurilmani sxemadan chetlashtiradi. Bu yerda UHM ga TBO jarayonining texnologik kattaliklari va rostlanayotgan kattaliklari to‘g‘risidagi axborotlar beriladi. UHM o‘z navbatida berilgan algoritm asosida boshqaruvchi ta’sirni ishlab chiqib bevosita ijro etuvchi mexanizm IM ga ta’sir etadi.

TJ ABS ning klassifikatsiyasi

1. Tashkiliy ishlab chiqarish iyerarxiyasida egallaydigan o‘rniga ko‘ra TJABS quyi, yuqori va ko‘p bosqichli sistema-larga bo‘linadi.



1.6-rasm. Bevosita sonli avtomatik boshqarish rejimi.

2. Boshqariladigan texnologik jarayonning xarakteriga ko‘ra uzlusiz, uzlusiz-diskret va diskret jarayonlarning ABS lariga bo‘linadi.
3. TJ ABS informatsion quvvatiga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

TJ ABS	O‘lchanayotgan va rostlanayotgan kattaliklar soni	
	min	max
1. kichik	10	40
2. kuchsizlantirilgan	41	160
3. o‘rta	161	650
4. kuchaytirilgan	651	2500
5. katta	2501	Chegarasiz


Bir konturli va ko‘p konturli ABS

Bir konturli ABS bitta rostlanadigan kattalikni avtomatik rostlash uchun ishlatalib, bitta teskari bog‘lanishga ega bo‘ladi.

Ko‘p konturli ABSda sistema zvenolarini statik va dinamik xossalarini yaxshilash uchun ular mahalliy teskari bog‘lanishlar bilan ta‘minlangan bo‘lib, bitta rostlagich bir necha rostlovchi organlarni boshqaradi.

Bog‘lanishli rostlash sistemalari deb avtomatik rostlagichlari o‘rtasida bir-biri bilan bog‘liqlik mavjud bo‘lgan sistemalarga aytildi.

Bog‘liqmas rostlash sistemalarida esa obyektda o‘rnatilgan rostlagichlar o‘rtasida tashqi bog‘liqlik mavjud bo‘lmasdan, ular bir-biri bilan obyekt orqali bog‘lanadi.




1. 7-rasm. Bog‘liqli rostlash sistemasining struktura sxemasi.

R1, R2 – rostlagichlar; 01, 02 – obyektlar.

Kaskadli rostlash sistemalari

Kaskadli rostlash qo‘sishimcha impuls yordamida rostlash sifatini yaxshilash uchun tashkil qilinadi.

Optimal rostlash sistemalarida rostlagich atrof-muhitning o‘zgaruvchi kattaliklari sharoitida rostlanuvchi kattalikning optimal qiymatini stabillab turadi.



1.8-rasm. Kaskadli rostlash sistemasining struktura sxemasi.


1.5. ODDIY VA O'Z-O'ZIDAN TO'G'RILANADIGAN AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMALARINING KLASSIFIKATSIYASI

I. Topshiriqning turiga ko'ra oddiy ARS lari: *stabillovchi, dasturli* va *kuzatuvchi* turlarga bo'linadi.

Stabillovchi avtomatik rostlash sistemasida rostlanayotgan kattalikning qiymati berilgan qiymatda o'zgarishsiz saqlab turiladi.

Misol tariqasida qarama-qarshi oqim g'ilofli issiqlik almashtirish apparatidagi temperaturani rostlash sistemasini ko'ramiz (1.9-rasm).


Chiqishdagagi temperatura issiqlik agentining sarfini o'zgartirish orqali rostlanadi. ARS bu yerda chiqish mahsulotining temperaturasini o'lchaydigan issiqlik datchigi 1 dan,



1.9-rasm. Stabillashgan ARS ning prinsipial sxemasi.

rostlagich 2 dan, rostlovchi mexanizm 3 va obyekt 4 dan iborat. Sezgir elementdan temperaturaning o‘zgarishiga to‘g‘ri keladigan signal va topshiriq beruvchidan berilgan temperaturani qiymatiga to‘g‘ri keladigan signal avtomatik rostlagichga beriladi. Rostlagich rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishiga mos rostlovchi ta’sir ishlab chiqadi va issiqlik agenti trubasida o‘rnatilgan rostlovchi klapanga beradi. Rostlovchi klapapan chiqish temperaturasi berilgan qiymatga yetgunga qadar harakatlanaadi.

Ikkinci misol tariqasida resiverdaggi havo bosimining ARSini ko‘ramiz (1.10-rasm).



1.10-rasm. Stabillashgan ARSning prinsipial sxemasi.

Bu sistemada rostlashning vazifasi resiverdaggi havoning bosimini o‘zgartirmasdan saqlashdan iborat. Truba 3 va to‘sinq 2 orqali havo kompressordan resevergacha tu shadi. Reseverdan esa truba 9 va rostlovchi organ 10 orqali kerakli joyga yuboriladi. Reseverdaggi havoning bosimi rostlanayotgan kattalik bo‘lib hisoblanadi. O‘lchovchi asbob bosimni harakatga aylantiradigan silfonli o‘zgartgich 7 va R2 potensiometrdan tuzilgan. Reseverdan havo impulsli truba 8 orqali silfonli quticha 7 ga tushadi va silfon 6 ga ta’sir qiladi. Shtok 4 orqali potensiometr R2 ni harakatlantiradi.

Potensiometrlar R2 (datchikni) va R1 (zadatchikni) ko‘prik sxemasi bo‘yicha ulangan. Ko‘prikni ulovchi dioganaliga qutbli relening chulg‘ami ulangan. Ko‘prik sxema taqqoslash elementi vazifasini bajaradi. Agar bosimning berilgan va hozirgi qiymatlari bir-biriga teng bo‘lsa, potensiometrlarning surgichlari R1 va R2 bir xil holatni egallaydi. Bu vaqtida qutbli relening yakori o‘rtta holatda bo‘ladi va elektr dvigatel harakatlanmasdan turadi.

Agar reseverdag‘i bosim o‘zgarsa, silfonli datchik R2 potensiometrning surgich holatini o‘zgartiradi va ko‘prikda kuchlanishlar farqi hosil bo‘ladi. Natijada ijro etuvchi mexanizmning elektr dvigateli to‘sinqni harakatlantirib havoning kelishini to muvozanat holat hosil bo‘lgunga qadar o‘zgartiradi. Muvozanat holat hosil bo‘lganda, R1 va R2 potensiometrdan kelayotgan kuchlanishlar farqi nolga teng bo‘ladi.


Dasturli ARS rostlanayotgan kattalikning qiymatini oldindan berilgan vaqt bo‘yicha dastur asosida o‘zgartiradi.

Ko‘pgina ishlab chiqarish jarayonlari davriy apparatlarda olib boriladi. Bu apparatlarda kerakli komponentlar solinib, keyin aralashtirgich ishlatiladi. Shundan so‘ng massa sovutiladi yoki isitiladi va ma’lum vaqtga qadar ushlab turiladi. Keyin tayyor mahsulot olinadi. Bu sistemada oddiy topshiriq bergichning o‘rniga dasturli topshiriq bergich qo‘llaniladi. Rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatini dastur asosida o‘zgartiradigan qurilmaga *dasturli topshiriq bergich* deb ataladi. Temperaturani avtomatik rostlash sistemasi (1.11-rasm) datchik 1, rostlagich 2, dasturli TB 3 va issiqlik agenti yo‘lida o‘rnatilgan rostlovchi mexanizm 4 dan tuzilgan.


Avtomatik rostlagichga temperaturani hozirgi vaqtagi qiymati va dasturli TB vaqt bo‘yicha berilgan qiymatiga mos signallar beriladi. Agar bu ikki signaling ayirmasi nolga teng bo‘lsa, g‘ilofga beriladigan issiqlik miqdori chiqayotgan

mahsulotning temperaturasini kamaytirish yoki kuchaytirishga yo‘nalgan bo‘ladi.

Shampan vinosi ishlab chiqaradigan korxonada qo‘llaniladigan akrotofor (rezervuar)dagи karbonat angidrid gazi bosimining dasturli ARS ini ko‘rib chiqamiz (1.12-rasm).



1.11-rasm. Dasturli ARS ning struktura sxemasi.



1.12-rasm. Havo bosimining programmalni ARSi:

a) prinsipiial sxema, b) havo bosimini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.

Uzum vinosi rezervuar (akrotofor) 1 da patrubka 11 orqali ma’lum qism achitqich va shakar bilan birga yuzasida ozgina joy qoldirib to‘ldiriladi hamda qopqog‘i mahkam bekitiladi. Achitish jarayoni yaxshi borishi uchun akrotoforning g‘ilofi 2 orqali issiq rassol yuborib isitiladi. Vinoda mikrobiologik

jarayon boshlanib, spirt bilan karbonat angidrid hosil bo‘ladi. Natijada akrotoforda bosim oshadi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sifatlari shaman vinosi olish uchun 25 sutka davomida akrotoforda bosim 0 dan 490 kPa gacha o‘zgarishi kerak. Jarayon tugashi bilan tayyor shaman vinosi truba 3 orqali chiqariladi.


Achitish jarayonining intensivligini boshqarish sovuq rassol bilan olib boriladi. Sovuq rassol muzlatish mashinasidan achitish jarayoni boshlanishi bilan quvur 14 orqali beriladi va quvur 4 orqali mashinaga qaytariladi. Quvur 10 orqali bosimning o‘zgarishi olinib membranali difmanometr 7 ning yuqori qismiga yuboriladi. Difmanometrning membranasi to‘sinq 8 bilan bog‘langan. To‘sinq harakatlanib, drossel 12 orqali kelayotgan havoning sarfini o‘zgartiradi. Pnevmatik ijro etuvchi mexanizm 13 akrotoforni g‘ilofiga beriladigan sovuq rassol yo‘lida o‘rnatalilgan.

Difmanometr quyi qismi balon 6 bilan bog‘langan. U esa o‘z navbatida tomchisimon nasos 5 orqali yog‘ beradi, natijada ballondagi bosim sekin-asta ko‘payadi. Difmanometrning yuqori va pastki qismidagi kuchlar bir xil bo‘lsa membrana va to‘sinq muvozanatda turadi.

Agar akrotofordagi bosim berilgan qiymatdan oshsa, membrana to‘sinq 8 ni suradi va soplo 9 orqali o‘tayotgan havoning sarfi ko‘payadi. IM 13 membranasiga ta’sir qiladigan bosim kamayib, rassolning sarfi ko‘payadi, natijada achitish jarayoni sekinlashadi. Shunday qilib, tomchisimon nasosning ish rejimini o‘zgartirib, jarayonga berilayotgan dastur o‘zgartiriladi.

Kuzatuvchi sistemalarda esa rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymati oldindan ma’lum bo‘lmaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda kuzatuvchi sistemalar ikki oqim muvofiqligini avtomatik rostlashda ishlataladi.

Misol tariqasida reaksiyon apparatga tushadigan oqimlar muvofiqligining rostlashini ko'ramiz (1.13-rasm).



1.13-rasm. Reaksiyon apparatlarda ikki oqim muvofiqligini kuzatuvchi ARSning prinsipial sxemasi.


Bu yerda avtomatik rostlashning vazifasi ikkinchi oqim sarfini birinchi oqim bilan muayyan muvofiqlikda saqlab turishdan iborat.

Birinchi oqimning sarfi oldindan bir xilda o'zgarmaydi va uning sarfi sistemaga bog'liq kattalik emas. Birinchi oqim sarf sezgir elementi 1 dan keladigan signal avtomatik rostlagich 3 ni topshiriq berish blokiga beriladi. Rostlagichga esa ikkinchi oqim sarf sezgir elementi 2 dan rostlanayotgan kattalik o'zgarganligi to'g'risida ham signal keladi.

Rostlagich hosil qilgan rostlovchi ta'sir ikkinchi oqim yo'lida qo'yilgan rostlovchi organni shunday harakatlantiradi, natijada ikkinchi oqimning sarfi birinchi oqimning sarfiga muvofiq kelsin.

Kuzatuvchi ARSga pishirish pechlarning isitish sistemalariga keladigan havo va gaz sarflarini ARS ni ham misol qilib keltirish mumkin (1.14-rasm).

Yoqish maydonchasiga gaz va havo truboprovodlar 2 va 10 orqali keladi. Ularda havo va gaz sarfini sezish uchun toraytirish qurilmalari 3 va 12 o'rnatilgan. Toraytirish qurilmalarida havo va gazning sarfiga mos hosil bo'lgan bosimlar



1.14-rasm. Kuzatuvchi ARS ning prinsipial sxemasi.

farqi impuls trubkalar 4 orqali difmanometrlarga 1, 14 yuboriladi. Difmanometr 1 gazning sarf sezgich elementi ARS da esa topshiriq beruvchi bo‘lib hisoblanadi. Sezgir element va topshiriq bergich membranalarida hosil bo‘lgan kuchlar 15 va 17 ignalar orqali trubka 16 ga uzatiladi. Bu trubka taqqoslash va boshqarish elementi vazifasini bajarib, sharnirlarda aylanadi. Unga sharnirlardan biri orqali bosim ostida yog‘ o‘tadi. Yog‘ning oqimi soplordan o‘tib trubkaning erkin joyiga intiladi. Trubka soplolisiga qarshi ikkita teshikcha joylashgan va ular porshenli ijro etuvchi mexanizmning trubka 5 lari bilan bog‘langan. Qabul qiluvchi soplolariga yog‘ning kelishi keskin kamayib, bosim o‘rnataladi. Agar trubka 6 ning soplari qabul qiluvchi soplolar o‘rtasida joylashgan bo‘lsa, unda P_1 va P_2 bosimlar bir xil bo‘ladi, ijro etuvchi mexanizm porsheniga ta’sir etuvchi kuch nolga teng. Soploring o‘rta holatidan o‘zgarishi qabul qiluvchi soplolarining birida bosim oshib, ikkinchisida kamayishiga olib keladi. $P_1 - P_2$ ning ishorasi trubka 6 soploring qaysi tomoniga og‘ishiga bog‘liq. Porshen shtok 8 va 9 yordamida havo beriladigan yo‘lida o‘rnatilgan rostlovchi organ bilan bog‘langan. Agar

gazning sarfi G_r biron-bir sabab bilan oshsa, difmanometr 1 ning membranasi trubka 6 ning o‘rtta holatidan o‘ngga suradi, P_2 bosim oshib P_1 bosim kamayadi. Porshen 7 chapga surilib, havo yo‘lidagi organ 11 ni ochadi. Havo sarfi G_h oshishi natijasida toraytirish qurilmasi 12 hamda difmanometr 14 da bosimlar farqi oshib, trubka 6 ni chapga suradi. ARS da o‘tish jarayoni porshen 7 trubka 6 ning o‘rtta holatiga o‘tganda tugaydi. G_r / G_h ning berilgan muvofiqligi toraytirish qurilmasi o‘lchamlarini tanlash orqali ta’minlanadi.

Vint 13 prujinani dastlabki holatga keltirish uchun xizmat giladi.

II. ARS – rostlash prinsipi bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:


1. G‘alayonlanishlar prinsipi bo‘yicha ARS.
2. Chetga chiqishlar prinsipi bo‘yicha ARS.
3. Kombinatsiyalashgan prinsip bo‘yicha ARS.

1. Chetga chiqishlar bo‘yicha rostlash prinsipi

Bu prinsip bo‘yicha rostlashda avtomatik rostlagichning rostlovchi ta’siri rostlanayotgan kattalik berilgan qiymatdan chetga chiqqan taqdirda hosil bo‘ladi. Bu prinsipni amalga oshiruvchi ARS berk sistemadir (1.15-a rasm) chunki rostlanuvchi obyektning chiqishidagi signal tengsizligini qayta ishlab, obyektning kirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi avtomatik rostlagichga keladi.


Chetga chiqishlar prinsipi bo‘yicha ishlaydigan ARS ga misol tariqasida yog‘ zavodlarida ishlatiladigan yakuniy distillyatorda yog‘ning konsentratsiyasini rostlash sistemasi (1.16-a rasm) ishini ko‘rib chiqamiz.

Yakuniy distillyatordan chiqadigan yog‘ni konsentratsiyasi apparatga beriladigan suv bug‘ining sarfiga bog‘liq. Yog‘ning konsentratsiyasini o‘lchash uchun apparatni chiqishiga kon-



1.15-rasm.

- chetga chiqishlar prinsipi bo'yicha ARSning sxemasi;
- g'alayonlanish prinsipi bo'yicha ARSning sxemasi;
- kombinatsiyalashgan prinsip bo'yicha ARSning sxemasi.



1.16-rasm. Yakuniy distillyator yog' konsentratsiyasini avtomatik rostlash sistemalarining sxemalari:

- chetga chiqishlar prinsipi bo'yicha;
- g'alayonlanish prinsipi bo'yicha;
- d) kombinatsiyalashgan prinsip bo'yicha.

sentratsiya sezgir elementi 1 qo'yiladi. Sezgir elementdan o'zgartirilgan signal rostlagich 2 ga beriladi. Rostlagich yog'-ning konsentratsiyasini o'zgarishiga muvofiq rostlovchi ta'sir

ishlab, suv bug‘i yo‘liga o‘rnatilgan ijrochi mexanizmning rostlovchi organi 3 ni harakatlantiradi. Shunday qilib, bu ARS doimo yog‘ni konsentratsiyasi berilgan qiymatdan chetga chiqqan taqdirda ishlaydi. Lekin bu o‘zgarishni yuzaga keltiradigan g‘alayonlanuvchi ta’sirlarni nazorat qilmaydi.

Bu prinsipning afzalligi xatoning qanday g‘alayonlanishlar ta’sirida paydo bo‘lishidan qat‘i nazar, avtomatik rostlagichining bu xatoni bartaraf etishidir. Chetga chiqishlar bo‘yicha rostlash prinsipini amalga oshiruvchi ARSlarining yana bir afzalligi bitta rostlovchining ta’sirida bir nechta g‘alayonlanishlarning zararli oqibatini yo‘qotish mumkinligidadir.

G‘alayonlanish paydo bo‘lishi bilan ular boshqariluvchi kattalikka ta’sir qilmay, balki rostlanuvchi obyektning dinamik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan vaqt o‘tgandan so‘ng ta’sir ko‘rsatishi bu prinsipning kamchiligi hisoblanadi. Bu esa mahsulot sifatining buzilishiga olib keladi.

2. G‘alayonlanish prinsipi bo‘yicha ARS

G‘alayonlanish bo‘yicha rostlash prinsipida ishlaydigan ARS da (1.16-b rasm) rostlovchi ta’sir obyekt yuki ta’sirida avtomatik rostlagichda hosil bo‘ladi. Bunday sistemalarda g‘alayonlanuvchi ta’sirlar obyektga ta’sir qilmay turib, avtomatik rostlagichga beriladi. Bu sistemani qo‘llash uchun obyektning beriladigan xomashyo xossalarning o‘zgarishini va obyekt haqida aniq ma’lumotni bilish kerak. G‘alayonlanish bo‘yicha ishlaydigan sistemalarning xususiyati ularning ochiq rostlash sistemalar ekanlidir. Bu sistemalarning kamchiligi esa rostlagich ishi va rostlanuvchi kattalikning o‘zgarishi o‘rtasida aloqa yo‘qligidir. G‘alayonlanish prinsipi bo‘yicha ishlaydigan ARS ga misol tariqasida quyidagi sistema (1.16-b rasm) ishini ko‘rib chiqamiz. Bu sistemada rostlagich 6 ni topshiriq blokiga hisoblash qurilmasi 5 dan signal keladi. Hisoblash qurilmasiga kirayotgan missellani temperatura sezgir

elementi 2, sarf sezgir elementi 1, konsentratsiya sezgir elementi 3, bosim sezgir elementi 4 lardan signallar keladi va berilgan algoritm asosida suv bug'i sarfini kelayotgan missella kattaliklariga mos qiymati hisoblanadi. Hisoblangan suv bug'ining sarfi rostlagichni topshiriq blokiga berilib, suv bug'ini sarf sezgir elementi 7 dan kelayotgan o'sha paytdagi qiymati bilan solishtirib, orasidagi farq aniqlanadi, hosil bo'lgan Δx ga mos rostlovchi ta'sir ijrochi mexanizm 8 ga beriladi. Rostlovchi klapan harakatlanib beriladigan bug'ning sarfini rostlab turadi. Bu sistemaning kamchiligi shundan iboratki, chiqayotgan yog'ning konsentratsiyasi nazorat qilinmaydi.


3. Kombinatsiyalangan prinsip bo'yicha rostlashda (1.16-a, b rasm) sxemalarda ko'rsatilgan sistemalar birgalikda ishlatilib, hisoblash qurilmasi algoritmiga har 2 soatda laboratoriya sharoitida aniqlanadigan yog' konsentratsiyasi qiymatiga mos keladigan tuzatish kiritib turiladi. Kombinatsiyalashgan prinsip bo'yicha ishlaydigan ARS larda chetga chiqishlar va g'alayonlanishlar prinsipi bo'yicha ishlaydigan ARS larning afzalligi oshirilib, kamchiliklari yo'qotiladi. Bunday sxema asosida ishlaydigan ARS larda (1.16-d rasm) g'alayonlanish prinsipi bo'yicha ishlaydigan sistema avtomatik rostlagichning topshiriq berish blokiga rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishi to'g'risidagi ma'lumot beriladi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida g'alayonlanuvchi ta'sirlar va rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishi yo'qotiladi.

III. Energiya manbayini ishlatish turiga ko'ra ARS lar bevosita va bilvosita harakatli turlarga bo'linadi.

Bevosita harakatli ARSlarda IM rostlovchi organni harakatlantirish uchun sezgir elementidan kelayotgan signal ishlatilib, qo'shimcha energiya manbayi talab etilmaydi. Biroq bevosita harakatli ARSlarning o'lchamlari kattaligi, rostlov-

chi organlarini harakatlantirish uchun katta kuch talab qilin-ganligi sababli ularning ishlatish sohalari chegaralangan. Bunday ARSlar konstruksiyasining oddiyligi, ishlatilishning qulayligi ularning afzalligi bo'lsa, murakkab bo'lmasagan va oddiy rostlashning ishlatilishi talabga javob beradigan rost-lashni ta'minlashi tufayli hamma obyektlarda qo'llanilmaydi. Bevosita harakatli ARSlarda sezgir element bir vaqtning o'zida ham ijro etuvchi qurilma ham taqqoslash elementi vazifasini bajaradi.

RRV-1 turidagi bevosita harakatli havo sarf rostlagichi (1.17-rasm) bilan tanishamiz.



1.17-rasm. Bevosita harakatli havo sarf rostlagichining prinsipial sxemasi.

Bu rostlagich pyezometrik sistemada suyuqlik sathini, zichligini va boshqa kattaliklarni o'lchash uchun beriladigan havo sarfini berilgan qiymatda saqlash uchun mo'ljallangan.

Biroq, yuqori bosimi va temperaturalarda ishlaydigan katta hajmdagi rostlash organlarini almashtirishga katta kuch talab etilishi sababli, ularni keng miqyosda qo'llash chegaralangan.

Bevosita harakatli ARSlarning konstruksiyalari oddiy va ishlashi ishonchli bo'lsa-da, ular har qanday obyektlarda rost-lashning berilgan sifatini ta'minlashga qodir emas, chunki nomukammal rostlash qonuni sodir etiladi.


Asbobning ishlash prinsipi drossel 11 orqali o‘tayotgan havo sarfi doimiyligi undagi bosimlar farqi ($P_1 - P_2$) ni o‘zgartirmasdan saqlash orqali erishilishiga asoslangan. Rostlagich korpus 9, qopqoq 2 va ular orasida joylashgan rezinali membrana 3 dan tuzilgan. Membranaga surgich 5 ga tayangan qattiq markaz 4 mahkamlangan.

Rostlagich qopqog‘i ostida membranaga ta’sir qiluvchi prujina o‘rnatilgan. Sharik 7 prujina ta’sirida soplo 6 ni yopishga harakat qiladi. Siqilgan havo $R_0 = 100-350$ kPa bosim ostida rostlagichning D kamerasiga beriladi. Pyezometrik sistema rostlagichning chiqish kamerasi A bilan bog‘langan. Rotametr 10 va drossel 11 bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, trubka va shtutser orqali rostlagichning A va B kameralari bilan tutashgan. Rostlagichni berilgan havo sarfiga sozlash drossel 11 orqali amalga oshiriladi. Prujina 1 kuchi orqali surgich 5 sharik 7 ni surishi natijasida kamera D dan havo soplosi 6 orqali membrana osti kamerasi 5 ga, rotametr orqali esa kamera A hamda pyezometrik sistemaga beriladi. Membrana yuzasiga prujinalar 1 va 8 hamda bosimlar farqi kuchlarining o‘zaro ta’siri natijasida surgich surilib, sharik yordamida soploni ochadi yoki yopadi. Shuning hisobiga rotametrning drosseli 11 da bosimlar farqi o‘zgarmaydi.

Pyezometrik sistema yoki manba bosimini o‘zgartirishi natijasida membranaga ta’sir qiluvchi kuchlar muvozanating buzilishi sodir bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida membranani harakatlanishiga hamda sharik va soplo o‘rtasidagi bo‘shliqni o‘zgartiradi. Natijada drosselda va havo sarfida bosimlar farqi hosil qilinadi.

URRD turidagi bevosita harakatli bosim rostlagichi (1.18-rasm) bir o‘rindiqli rostlovchi organ va membrana prujinali ijro etuvchi mexanizmdan tuzilgan.

Rostlovchi organ korpus 7 ga qotirilgan zolotnik 6 va o‘rindiq 8 dan iborat. Yuqori va pastki qopqoqlar orasiga qo‘yilgan, membranali ijro etuvchi mexanizm stakan 4 orqali



1.18-rasm. URRD turidagi bevosita harakatli bosim rostlagichining prinsipial sxemasi.

korpusning yuqori qopqog‘iga qotirilgan. Membranali ijro etuvchi mexanizm prujinalar 13, qattiq markaz 14, shpilka 5, zolotnik 6 bilan silfonli blok o‘zaro ta’sirlanadi. Korpusning pastgi qopqog‘ida stakan 11 zolotnikka qotirilgan to‘g‘rilovchi prujina 10 va vint 9 dan iborat to‘g‘rilash bloki o‘rnataligan. Impuls trubkalar orqali ijro etuvchi mexanizm rostlash obyekti bilan bog‘langan.

Rostlanayotgan kattalik o‘zgarishi bilan membranaga ta’sir qiladigan kuch prujina 13 tarangligi bilan muvozanatlashadi, rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishida o‘zaro ta’sirlanuvchi kuchlar muvozanati buzilib, zolotnik harakatlanadi va sarf o‘zgaradi. Natijada rostlanayotgan kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymat bilan tenglashadi.


URRD rostlagichlar 0,06-0,1: 0,1-0,25: 0,25-0,6: 0,16-0,4 mPa tuzatish chegaralarida chiqariladi.

Bilvosita harakatli ARSlarda tashqaridan energiya manbayi ishlatiladi. Ishlatiladigan energiya manbayining turiga ko‘ra ARS elektrik, pnevmatik va gidravlik turlariga bo‘linadi.

Bevosita harakatli ARS lar mahalliy, bilvosita harakatli ARS distansion shitlarida o'rnatiladi.

IV. Obyektga ta'sir etish usuliga ko'ra ARS lar uzlusiz va uzlukli harakatli turlariga bo'linadi.

Uzlusiz ARS larda rostlanayotgan kattalikning uzlusiz o'zgarishiga rostlovchi organning uzlusiz harakati mos keladi. 1.19-rasmda sharbatli idishda suyuqlik sathini uzlusiz ARSning prinsipial sxemasi ko'rsatilgan.



1.19-rasm. Sathni uzlusiz ARS ning prinsipial sxemasi.


Sath oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladigan pyezometrik usulda o'lchanadi. Trubka va pnevmokuchaytirgich 2 kirishidagi havoning bosimi sharbat sathiga proporsionaldir. Bosim va quvvati kuchaytirilgan pnevmosignal sharbat kelayotgan truboprovodda o'rnatilgan rostlovchi klapan 6 bilan bog'langan membrana-prujinali ijro etuvchi mexanizm 5 dan tuzilgan pnevmatik ijro etuvchi mexanizmga keladi. Idishdan sharbat nasos 8 orqali olinadi.

Sistemada sharbat sathi uzlusiz o'zgarsa, membranaga kelayotgan kuch ham uzlusiz bo'ladi. Membrana o'zining qattiq markazi bilan prujinani qisib zatvor 4 ni harakatlantira-

di. Klapan 7 ning o'tish kesimi kichrayib, idishga kelayotgan sharbat ham kamayadi va sath berilgan qiymatiga yetkaziladi.

Uzlukli ARSlarda rostlanayotgan kattalikning uzlusiz o'zgarib, o'zining maksimal yoki minimal qiymatiga yetganda rostlovchi organ harakatlanadi. Bunday ARS o'z navbatida releli (pozitsion) va impulsli turlariga bo'linadi.

Idishda suyuqlik sathini RU-ZE (3 elektrodli) turidagi sath relesi bilan ARS ni (1.20-rasm) ko'rib o'tamiz.




1.20-rasm. Sathni releli ARS ning prinsipial sxemasi.

Suyuqlik idish 2 ga shtok 5 yordamida elektromagnitli klapan EV o'zagi 6 bilan bog'langan shiber 4 o'rnatilgan truboprovod 3 orqali tushadi. Idishdan suyuqlik iste'molchilarga elektrodvigatel M bilan nasos yordamida uzatiladi. Idishda elektrod E1 yuqori sath belgisida (YuS), elektrod E2 pastki sath belgisida (PS) va elektrod E3 pastki nuqta ostida o'rnatilgan. Sath relesi tarkibiga elektrodlardan tashqari pasaytiruvchi transformator T1, ko'prikl to'g'rilagich VD1-VD4, K1 rele va S1 kondensator kiradi. Sath PS belgidan

past bo‘lganda rele K1 toksizlanadi va uning kontaktlari K1 (11-12) tutashadi hamda elektromagnitli shiber ochilib, suyuqlik idishga tushadi. Suyuqlik sathi E1 elektroddan o‘tib YuS belgiga yetsa, rele K1 ishga tushadi, o‘zining ajraluvchi kontaktlari K1 (11-12) elektromagnitni toksizlantirib shiberni yopadi. Shu bilan bir vaqtida K1 rele o‘zining himoyalovchi tutashuvchi kontaktlari (8-9) bilan ulanadi. Sath PS belgiga yetganda shiber qayta ochiladi. Shunday qilib, rostlanayotgan kattalik uzlusiz o‘zgarishida rostlovchi organ uzlukli harakatlanib ikki holatni («ochiq» va «yopiq») egallaydi. Impulsli ARSda uzuvchi zveno bo‘lib impulsli element hisoblanadi. Impulsli element uzlusiz kirish signalini alohida impulslarga aylantiradi.

Impulsli sistemasiga temperaturani stabillash ARS misol qilamiz. Sistemaning sezgir elementi bo‘lib, ko‘priknig diagonalida tok kuchini o‘lchovchi galvanometr G hisoblanadi (1.21-a rasm). Ko‘pri R₁, R₂, R₃ va R₄ qarshiliklardan tuzilgan bo‘lib bir yelkasiga R_T qarshilik ulangan. Galvanometr strelkasining og‘ishi ΔP – rostlash obyektidagi temperaturaning o‘zgarishiga bog‘liq. Galvanometr strelkasi va kuchaytirgich o‘rtasida impulsli element (1.21-b rasm) o‘rnataligan.



1.21-rasm. Temperaturani impulsli ARS
a) prinsipial sxema; b) impulsli elementning sxemasi.

Rostlash organini harakatga keltiruvchi elektrodvigatel M kuchaytirgichdan manba oladi.

Galvanometr G strelkasi SG potensiometr R ostida bemalol chapga va yonga harakatlanadi. Strelka osti «tushuvchi elementli» eks markazga tayangan surgich o'rnatilgan bo'lib, o'zgarmas burchak tezlik bilan harakatlanadi. Agar «tushuvchi element» pastki holatida bo'lsa, qandaydir qisqa vaqt ichida galvanometrning strelkasi potensiometr chulg'amini qisadi. O'sha vaqtda kuchaytirgichga kuchlanish impulslari beriladi. Impulslarni berish vaqtiga sistema tashqarisidan berilib, eks markaz burchakli aylanish tezligiga proporsionaldir. Rostlovchi organ uzlukli impulslarga mos harakatlanib qandaydir teng vaqt oralig'ida obyektga ta'sir qiladi.

Impulslari ARSlariga sonli hisoblash qurilmasi bo'lgan avtomatik rostlash sistemalari kiradi. Rostlash konturining soniga ko'ra bir konturli va ko'p konturli ARS bo'ladi.

Bir konturli ARS bitta rostlanayotgan kattalikning qiymatini rostlab, bitta teskari bog'lanishga ega bo'ladi. Ko'p konturli ARSda bitta rostagich bir rostlanayotgan kattalikning har xil kanallarida bir nechta rostlovchi organlarni boshqaradi.


Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish jarayoni nima?
2. Avtomatlashtirish davrlarini tushuntiring.
3. Avtomatik nazorat nima?
4. Avtomatik rostlash sistemasi ishini tushuntiring.
5. Avtomatik boshqarishning mohiyati nimada?
6. Avtomatik rostlash sistemasini klassifikatsiyalab bering.

II BOB. AVTOMATIK ROSTLASH OBYEKTLARI

Ishlab chiqarishni avtomatlashirish uchun birinchi navbatda boshqarish ta'sirida bo'ladigan obyekt to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Obyektlarni matematik modellari orqali sanoat obyektlari va ishlab chiqarish jarayonlarini effektiv boshqarishga erishiladi. Obyektlarni matematik modelini qurishning usullaridan biri – moslashtirishdir.

Tekshirilayotgan jarayonni matematik tavsifini yozish uchun obyektning o'sha paytdagi holatini xarakterlaydigan barcha kattaliklar va ta'sirlarni 4 guruhga bo'lish mumkin.



2.1-rasm. Boshqarish obyektiining parametrik sxemasi.

1. Nazorat qilinadigan kirish kattaliklari $X (x_1, x_2, \dots, x_m)$ – xomashyoning son va sifatini xarakterlaydigan kattaliklar, laboratoriya tekshirish natijalari, kimyoviy analiz natijalari, analitik asboblar ko'rsatishlari va hokazo.


2. Nazorat qilinmaydigan kirish kattaliklari F (f_1, f_2, \dots, f_k)
g' alay onlanuvchi kattaliklar – atrof-muhitning sutkali yoki
mavsumli o'zgarishi, xomashyo tarkibining to'satdan o'zga-
rishi yoki uning fizik-kimyoviy tarkibining o'zgarishi, jihoz
konstruksiyasining eskirishi va boshqarish kanali bo'yicha
har xil tovushlarning borligi.

3. Boshqariladigan chiqish kattaliklari – U (u_1, u_2, \dots, u_d) –
umumlashtirilgan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

4. Boshqaruvchi ta'sirlar Y (y_1, y_2, \dots, y_g) – bular yordami-
da berilgan jarayonni o'zgartirmasdan saqlab turiladi.

Jarayonning texnik sharoitiga ko'ra kirish kattaliklari
chegarananadi $X_{j \min} \leq X_j \leq X_{j \max}$.

Boshqaruvchi ta'sirlar esa texnik limitlar asosida
chegarananadi.



2.2-rasm. Avtomatik boshqarish sistemasining xarakterlovchi
ta'sirlarini hisobga olgan holda strukturali sxemasi.

$$U_{i \min} \leq U_i \leq U_{i \max} - g^{\prime} \text{alayonlanuvchi ta'sirlar.}$$

BQ ga ta'sir qiluvchi kattaliklar:

$Z(z_1, z_2 \dots z_n)$ – nazorat o'lchov asbobidan;

$U(u_1, u_2 \rightarrow u_d)$ – vaqt qurilmasidan;

$N(h_1, h_2 \dots, h_l)$ – tashqi qurilmadan;

$V(v_1, v_2 \dots, v_s)$ – boshqa obyektlarni boshqarish organlaridan.

TBO ga BQdan ta'sir qiluvchi kattaliklar:

$X(x_1, x_2 \dots, x_m)$ – ijro etuvchi mexanizmga;

$U(u_1, u_2 \dots, u_g)$ – vaqt qurilmalariga;

$W(w_1, w_2 \dots, w_l)$ – obyektdan tashqari qurilmalarga.

Avtomatik rostlash sistemasi oddiy holda rostlash obyekti va avtomatik rostlagichdan iborat. Rostlash obyektlari avtomatik rostlash sistemasining asosiy zvenosi bo'lib hisoblanadi va uning xossalari rostlash jarayoniga ta'sir qiladi. Kerakli rostlash sifatini ta'minlovchi, ishga yaroqli ARS yaratish obyektlarni statik va dinamik xossalarni o'rganishni talab qiladi.

Moddiy va energetik balansga rivoja qiladigan texnologik jihoz, apparat mexanizmga *rostlash obyekti* deb ataladi. Oziq-ovqat sanoatida rostlash obyekti bo'lib, yakuniy distillatorlar, non pishirish pechlari, ekstraksion qurilmalar va hokazolar hisoblanadi. Rostlash obyektlarining xarakteristikasini olish va ularning xossalarni o'rganish analitik va eksperimental yo'llar bilan amalga oshiriladi. Analitik usul yordamida rostlash obyektlarini muvozanat va o'tish jarayonlarini xarakterlovchi differensial tenglamalari yoziladi. Tekshirishning analitik usuli oddiy rostlash obyektlarida jarayonlarini o'rganish uchun foydalaniladi. Matematik tavsif yordamida ifodalash qiyin bo'lgan murakkab rostlash obyektlarini tekshirish esa eksperimental usulda olib boriladi.

2.1. ROSTLASH OBYEKTLARINING KLASSIFIKATSIYASI

Rostlash obyektlari dinamik xossalariga ko‘ra kattaliklari mujassamlangan va tarqalgan turlariga bo‘linadi. Rostlash obyektining muvozanat holatida uning hamma nuqtalarida rostlanayotgan kattaliklari bir xil qiymatga ega bo‘lsa, bunday obyektlar *kattaliklari mujassamlangan obyektlar* deb ataladi. Oziq-ovqat sanoatida bunday obyektlarga shnekli kamera misol bo‘ladi. Bu yerda rostlanayotgan kattalik kameradagi xamirning bosimi bo‘lib hisoblanadi. Kattaliklari mujassamlangan rostlash obyektlarining dinamik xossasi o‘zgarmas koeffitsiyentli oddiy differensial tenglamalar bilan yoziladi.

Muvozanat va o‘tish jarayonlarida rostlash obyektlarining har xil nuqtalarida rostlanayotgan kattalikning qiymati bir xil bo‘lmasa, bunday obyektlar *kattaliklari tarqalgan obyektlar* deyiladi. Bunday obyektlarga har xil suyuqlikli va sochiluvchan moddalar truboprovodlari misol bo‘la oladi. Kattaliklari tarqalgan obyektlarning dinamik xossalari xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan yoziladi.

2.2. ROSTLASH OBYEKTINING XARAKTERISTIKALARI

Rostlash obyekti avtomatik sistemaning asosiy qismi bo‘lganligi sababli, ularning xarakteristika va xossalari o‘rganish rostlash sifatini yaxshilash uchun muhimdir.

Rostlash obyekti statik va dinamik xarakteristikalar bilan xarakterlanadi. Obyektlarni avtomatik rostlash sistemaning alohida bir zvenosi deb qaraydigan bo‘lsak, ular chiqish va kirish kattaliklariga ega.

Rostlash obyektning *statik xarakteristikasi deb*, uning muvozanat holatida chiqish kattaligi bilan kirish kattaligi o‘rtasidagi bog‘lanishga aytildi.


Obyektlarni statik xarakteristikasi analitik, jadval va grafik ko'rinishda berilishi mumkin.

Chiziqli sistemalarning statik xarakteristikasi umumiyl holda quyidagicha yoziladi:

$$X_{ch} = K X_k; \quad (1)$$

K – obyektning kuchaytirish koeffitsiyenti o'zgarmas koeffitsiyent bo'lib, uning qiymati chiqish kattaligini kirish kattaligidan necha marta katta ekanligini ko'rsatadi (2.3-rasm) va α – burchakning tangensi bilan ifodalaniladi.

$$K = \operatorname{tg} \alpha = \frac{X_{ch}}{X_k} \quad (2)$$



2.3-rasm.


Avtomatik sistemani tashkil qiladigan ko'pchilik real elementlar chiziqli emas. Bunday sistemalarni hisoblashda ularni chiziqli qilish uchun chiziqlashtiriladi. Obyektlarning statik xarakteristikalari eksperimental yoki analitik usulda aniqlanadi.

Rostlash obyektining *dinamik xarakteristikasi deb*, uning o'tish rejimida chiqish kattaligining vaqt bo'yicha o'zgarishi bilan kirish kattaligi o'rtasidagi bog'lanishga aytildi. Obyektlarning dinamik xarakteristikasi o'tish va chastotali xarakteristikalarga bo'linadi.

Obyektlarining o'tish xarakteristikasi ularning kirishi-ga pog'onasimon g'alayonlanish berilgandagi reaksiyasini ko'rsatadi.

Obyektlarning chastotali xarakteristikasi esa, ularning kirishi-ga sinusoidal g'alayonlanish bergandagi reaksiyasini ko'rsatadi. Dinamik xarakteristikalarini statik xarakteristikalar

kabi eksperimental va analitik usulda olish mumkin. O'tish xarakteristikasini tajriba yo'li bilan aniqlashda rostlagich rostlash obyektidan uzib qo'yiladi va sistemani kirishiga qo'l bilan pog'onasimon g'alayonlanish beriladi. Hosil bo'lgan o'tish xarakteristikasidan quyidagi dinamik kattaliklarni aniqlash mumkin: kechikish, o'zgarmas vaqt koefitsiyenti – T va uzatish koefitsiyenti – K (2.4-rasm).



2.4-rasm. Rostlash obyektining o'tish xarakteristikasi.

2.3. ROSTLASH OBYEKTINING XOSSALARI

Oziq-ovqat sanoatidagi rostlash obyektlari ishslash principi va konstruksiyasi xilma-xilligiga qaramay, umumiy dinamik xossalari bilan xarakterlanadi. Bular: *o'z-o'zidan to'g'rilanish, sig'im, kechikish* xossalardir.


1. O'z-o'zidan to'g'rilanish xossasi

O'z-o'zidan to'g'rilanish xossasi – bu obyektlarning bir muvozanat holatidan ikkinchi muvozanat holatiga avtomatik rostlagich yordamisiz qaytib kelish xossasidir. Obyektlarning

muvozanat holati modda yoki energiya sarfining o‘zgarishi natijasida buzilishi mumkin.

O‘z-o‘zidan to‘g‘rilanish xossasiga ega obyektlar *turg‘un* yoki *statik*, bunday xossaga ega bo‘lmaidan obyektlar esa *noturg‘un* yoki *astatik* obyektlar deyiladi.

Statik obyektga misol bo‘lgan suvli bakni (2.5-rasm) ko‘ramiz. Bak 2 ga ventil 1 orqali Q_1 miqdorda suv keladi, bakdan esa ventil 3 orqali o‘tib ketadi. Agar ventillar aniq holda ochiq bo‘lsa, suv tushishi o‘zgarmasdan, ketishi esa o‘zgaruvchi bo‘lib bakdagi suvning sathiha bog‘liq bo‘ladi. Bakdagi suvning sathi ko‘tarilishi bilan suvning pastki qatlami kuchaytirilgan bosim ostida bo‘lganligi sababli chiqish ham oshadi. Masalan, kirish va chiqish oqimlari teng bo‘lsa $Q_1 = Q_2$ unda suvning sathi N o‘zgarmaydi. Agar 1 ventilni ochsak, kirish oqimi kuchayadi. Tenglik buziladi va N sath so‘nadi. Biroq gidrostatik bosimni ko‘payishi bilan Q_2 chiqish oqimi ham ko‘payadi, Q_1 o‘zgarmas bo‘lganligi sababli, $Q_1 - Q_2$ sekin-asta kamayadi va suvning sathi bakda yangi muvozanat holatga intiladi. Demak, Q_1 kelish oqimiga g‘alayonlanish berganda bakdagi suvning sathi yangi muvozanat holatiga qaytib keladi. Demak, obyekt o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli *statik obyekt* deb ataladi.




2.5-rasm. O‘z-o‘zidan to‘g‘rilanish xossasiga ega bo‘lmaidan obyekt:
a) texnologik sxema; b) obyektmning o‘tish xarakteristikasi.

Agar 2.5-rasmdagi obyektga 3-ventilni o‘rniga bir tezlikda ishlataladigan nasos o‘rnatilsa, unda obyekt o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanish xossasiga ega bo‘lmaydi. Haqiqatdan, agar Q_1 – kelish oqimini o‘zgartirsak, rostlanayotgan kattalik N ko‘payadi, lekin Q_2 ketish oqimi o‘zgarmasdan qoladi va obyekt o‘zi uni ko‘paytirolmaydi. Ketish oqimini o‘zgartirish uchun avtomatik rostagich orqali nasosni ishga tushirish kerak. Demak, bunaqa obyekt o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanish xossasiga ega emas va obyekt *astatik obyekt* deyiladi.

2. Sig‘im

Sig‘im – bu obyektlarning modda va energiya to‘plash xususiyatiga aytildi. Sig‘im soniga qarab obyektlar bir sig‘imli va ko‘p sig‘imli obyektlarga bo‘linadi. Bir sig‘imli obyektlar bitta sig‘im va bitta qarshilikdan iborat. Bunga misol aralashtirish isitgichi bo‘la oladi (2.6-a rasm). Bu yerda suv oqimining temperaturasi suv bug‘ining sarfi bilan rostlanadi. Obyektning sig‘imi suyuqlikning issiqlik sig‘imi bo‘lib, qarshiligi esa chiqish trubasidagi gidravlik qarshilik bo‘lib hisoblanadi. Ikki sig‘imli obyekt (2.6-b rasm) trubali isitgich bo‘lib, truba orqali suv, trubalar orasidagi bo‘shliqdan bug‘



2.6-rasm. Sig‘imli obyektlar prinsipial sxemasi.
a) bir sig‘imli; b) ikki sig‘imli; d) ko‘p sig‘imli.

oqadi. Bu yerda trubalar orasidagi bug‘ va trubalar ichidagi suyuqlik issiqlik sig‘imi bo‘lib, truba va panjara devorlari uning qarshiligidir.

Ko‘p sig‘imli obyektga esa rektifikatsion kolonna misol bo‘la oladi (2.6-d rasm). Sig‘imlar soni tarelkalar soni bilan izohlanadi.

Sig‘imlar *sig‘im koeffitsiyenti* bilan xarakterlanib quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$C = \Delta Q / \frac{\vartheta}{d\tau} \quad (3)$$

Bu yerda: ΔQ – moddaning kirish va chiqishidagi sarfining ayirmasi. ϑ – rostlanayotgan kattalik.

Sig‘im koeffitsiyenti qancha katta bo‘lsa, rostlanadigan kattalik shuncha sekin o‘zgaradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, sig‘im koeffitsiyenti katta bo‘lgan obyektlar rostlashga qulay bo‘lib hisoblanadi.

3. Kechikish xossasi

Avtomatik rostlash sistemalarida muvozanat holat buziliishi bilan rostlanayotgan kattalik o‘zgarishigacha qandaydir vaqt o‘tadi. Bu vaqt sistemaning inersionligi va qarshiliklari borligi bilan xarakterlanadi va *kechikish* deb ataladi.

O‘tish yoki sig‘imli va sof yoki transportli kechikishlar mavjud. O‘tish yoki sig‘imli kechikish ko‘p sig‘imli obyektlarda uchraydi va sig‘im oshishi bilan ko‘payadi. Bu kechikish obyektlarining modda oqimi va energiya qarshiliklarini yengish natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, issiqlik almashinuvli apparatlarda asosan issiqlik almashinish yuzalarining ifloslanishi, tigilib qolishi, kolonna apparatlarida esa nasadkalarining ifloslanishi, qotib qolishi natijasida kechikish hosil bo‘ladi. Transport yoki sof kechikish quyidagicha topiladi:

$$\delta_m = \frac{l}{v} \quad (4)$$

Bu yerda: v – oqim tezligi; l – g‘alayonlanish berilgan joydan kattalik o‘zgaradigan joygacha bo‘lgan masofa.

Obyektlardagi umumiy kechikish sig‘imli va transport kechikishlar yig‘indisiga teng.

$$\delta_{um} = \delta_s + \tau_m \quad (5)$$

Kechikish rostlash sifatiga yomon ta’sir qiladi. Shuning uchun imkoniyat boricha ularni yo‘qotishga harakat qilish kerak. Buning uchun sistemada elementlarning inersionligi kichik, rostlash obyektlarini yaxshi konstruksiyasini tanlash kerak. Avtomatik asboblarining imkoniyati boricha rostlash obyektiga yaqin o‘rnatishga erishish kerak.

2.4. AVTOMATIK ROSTLASH OBYEKTALARINI TEKSHIRISH

Rostlash obyektlari avtomatik rostlash sistemasining eng asosiy zvenosi bo‘lganligi sababli, ularni rostlashdan oldin tekshiriladi. Obyektlarni tekshirishning eng keng tarqalgan usuli modellashtirishdir. Fizik va matematik modellashtirishlar mavjud. Fizik modellashtirishda tekshirilayotgan jarayoni fizikaviy tabiatni o‘zgartirilmasdan modelga o‘tkaziladi. Matematik modellashtirishda esa o‘rganilayotgan jarayon matematik tenglamalar orqali ifodalanadi.

Bir-biriga o‘xhash bo‘lgan har xil jarayonlar bir xil matematik tenglamalar bilan ifodalanadi.

Matematik modellashtirish usuli to‘rt bosqichda olib boriladi:

1. Boshqarish obyektidagi asosiy jarayonlarni matematik tavsifini yozish.
2. Matematik modelni EHM yordamida yechish algoritmini tuzish.
3. Olingan matematik modelni haqiqiy jarayonga mosligini tekshirish.

4. Matematik modelni EHM da yechib xarakteristikalarini olish.

Jarayonlarni matematik tavsifini olish usullari turli-tumanligiga qaramay, ular 2 asosiy usulga *analitik* va *tajriba* usul-larga bo‘linadi.

2.5. ROSTLASH OBYEKTALARINING ANALITIK YOZUVI

Obyektlarning xossalari xarakterlovchi tenglamalarni tuzish, ularni muvozanat holatida moddiy va energetik balanslarini va o‘tish rejimida tenglamalarni yozish orqali amalga oshiriladi.

Dinamik xossalariغا ko‘ra oddiy rostlash obyektlari turg‘un, neytral va noturg‘un obyektlariga bo‘linadi.

Misol tariqasida rektifikatsion kolonnaning suyuqlik sathini o‘zgartirmasdan saqlash kerak bo‘lgan bir qismini ko‘rib chiqamiz (2.7-a rasm).

Bu obyekt o‘z-o‘zidan to‘g‘rlanish xossasiga ega, turg‘un obyekt suvning kelishi bilan rostlanayotgan kattalik – suyuqlik sathi ko‘tariladi, suyuqlik ustunining gidrostatik bosimi ko‘payib suyuqlik sarfi Q_s ni ko‘payishiga olib keladi. O‘tish rejimi tugagandan so‘ng, yangi muvozanat holati o‘rnatilib, Q_s sarf Q_k kelishga mos ko‘payadi va rezervarda sath ko‘payishi to‘xtatiladi.

Moddiy balans tenglamasi quyidagicha bo‘ladi.

$$(Q_k - Q_s)dt = 0 \quad (6)$$

Rezervarda suyuqlik sathi o‘zgarmasdan qoladi. Muvozanat holat buzilishi bilan suv kelishi Q_k va sarfi Q_s o‘rtasidagi tenglik buzilib, kolonnada suyuqlik sathi t_1 , vaqt bo‘yicha yoki ko‘tariladi yoki kamayadi (2.7-b rasm). Kolonna kesimini S bilan belgilaymiz. O‘tish jarayoni uchun quyidagini yozamiz:

$$(\Delta Q_k - \Delta Q_s)dt = Sd(\Delta H) \quad (7)$$

yoki

$$S \frac{d(\Delta H)}{dt} = \Delta Q_k - \Delta Q_s \quad (8)$$

Bu yerda: ΔQ_k va ΔQ_s – suyuqlik kelishi va sarfining t vaqt bo‘yicha o‘zgarishi;

ΔH – muvozanat holatiga nisbatan suyuqlik sathining o‘zgarishi.

ΔQ_k – kattalik suyuqlik sathi N ga bog‘liq emas; suyuqlik sarfi ΔQ_s sath H ga bog‘liq kamayishi yoki ko‘payishi mumkin.

Sathning kam o‘zgarishida, suyuqlik sathi sarfiga bog‘liq:

$$\Delta Q_s = \Delta H \cdot C \quad (9)$$

Bu yerda, C – proporsionallik koeffitsiyenti.

ΔQ_s ifodani (8) tenglamadan (7) tenglamaga qo‘yamiz:

$$S = \frac{d(\Delta H)}{dt} + C\Delta H = \Delta Q_k \quad (10)$$

Bu tenglama ko‘rilayotgan obyektning dinamikasini xarakterlaydi. (9) tenglamada chap tomondagи hadlarini H_0 ga ko‘paytirib, bo‘lamiz, o‘ng tomondagи hadlarni esa Q_{kh} ko‘paytirib bo‘lamiz.

Bu yerda, Q_{kh} – suv kelishini nominal qiymati:

$$SH_0 \frac{d}{dt} \frac{\Delta H}{H_0} + CH_0 \frac{\Delta H}{H_0} = Q_{kh} \frac{\Delta Q_k}{Q_{sh}} \quad (11)$$

yoki

$$\frac{SH_0}{Q_{kh}} \frac{d}{dt} \frac{H}{H_0} + C \frac{H_0}{Q_{kh}} \frac{\Delta H}{H_0} = \frac{\Delta Q_k}{Q_{kh}} \quad (12)$$

$$\text{Belgilash } \frac{SH_0}{Q_{kH}} = T_a; \frac{CH_0}{Q_{kH}} = \rho; \frac{\Delta H}{H_0} = \varphi; \frac{\Delta Q_k}{Q_{kH}} = \mu \text{ kiritamiz.}$$

Unda (11) tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$T_a \frac{d\varphi}{dt} + \rho\varphi = \mu \quad (13)$$

Bu yerda; T_a – obyektning vaqt koeffitsiyenti;

φ – chiqish kattaligining nisbiy o‘zgarishi;

μ – suv kelishining nisbiy o‘zgarishi.

(12) tenglama o‘z-o‘zidan to‘g‘rulanish xossalari turg‘un obyektning tenglamasi.

ρ – o‘z-o‘zidan to‘g‘rulanish darajasi.

(12)-tenglamadagi hamma hadlarini ρ ga bo‘lsak,

$$\frac{1}{\rho} = K \quad \frac{T_a}{\rho} = T \quad \text{bilan belgilasak,} \quad (14)$$

$$\left(\frac{T_a}{\rho} \frac{d\varphi}{dt} \right) + \varphi = \frac{1}{\rho\mu}$$

$$T \frac{d\varphi}{dt} + \varphi = K\mu \quad (15)$$

Bu yerda, T – obyektning o‘zgarmas vaqt doimiysi;
 K – kuchaytirish koeffitsiyenti.

Agar φ va μ ning X_{chiq} va X_{kir} bilan almashtirsak,

$$T \frac{dX_{\text{chiq}}}{dt} + X_{\text{chiq}} = KX_k \quad (16)$$

Obyektning pog‘onali g‘alayonlanish ta’sirida vaqtli xarakteristikasi.

$$X_{\text{chiq}} = KX_k \left(1 - e^{-\frac{t}{T}} \right); \quad (17)$$

Obyektning uzatish funksiyasi:

$$W(P) = \frac{K}{TP + 1} \quad (18)$$

1-misol. 300-380 kg/s ish unumdorligiga ega bo‘lgan tomat sharbat qaynatish kolonnasini «bug‘ bosimi – kolonnani chiqishidagi sharbat temperaturasi» kanali bo‘yicha differensial tenglamasi quyidagiga teng:

$$30 \frac{dX_{ch}(t)}{dt} + X_{ch}(t) = kX_k(t - 22)$$

Bug‘ bosimini 0,25 dan 0,3 mPa gacha pog‘onasimon o‘zga-rishiga, ijro etuvchi mexanizmning (i.e.m.) 6,25 % yurishi to‘g‘ri kelganda, kolonna chiqishida sharbat temperaturasi 119,6°C dan 121,6 gacha o‘zgaradi.

Ko‘riladigan obyektni o‘tish jarayoni egri chizig‘ining quyidagi kattaliklari aniqlansin:

$$K\left(\frac{\text{°C}}{\% \text{ i.e.m.}}\right); T(c); \tau(c); \Delta X_{ch} \quad \text{va:}$$

a) kechikishni hisobga olmasdan; b) kechikishni hisobga olgan holda o‘tish jarayonining egri chizig‘i qurilsin.

Yechilishi:

Rostlash obyekti – qaynatish kolonnasining kuchaytirish koeffitsiyentini topamiz. Qaynatish kolonnsasi chiqishida sharbat temperaturasining o‘zgarishi:

$$\Delta X_{ch} = \Delta \theta = 121,6 - 119,6 = 2 \text{ °C}$$

Obyektning kuchaytirish koeffitsiyenti:

$$K = \frac{\Delta \theta \text{ °C}}{\% \text{ i.e.m.}} = \frac{2,0 \text{ °C}}{6,25 \% \text{ i.e.m.}} = \frac{0,32 \text{ °C}}{\% \text{ i.e.m.}}$$

Qaynatish kolonnasining differensial tenglamasidan kerakli qiymatlarni aniqlaymiz: Obyektning vaqt doimiysi $T=30$ s; kechikish vaqt $\tau=22$ s.

O‘tish jarayonining egri chizig‘i chiqish kattaligining kirish kattaligi pog‘onasimon o‘zgarganda, $X_k(t) = Al(t)$; $A = 1$ va $X_k(0) = 0$ bo‘lganda o‘zgarishini xarakterlaydi.

Masalani kechikishni hisobga olmasdan yechamiz.
Unda tenglama:


$$T \frac{dX_{ch}(t)}{dt} + X_{ch}(t) = KX_{ch}(t)$$

Bu yerda: $T = 30 \text{ } ^\circ\text{C}$, $K = 0,32 \frac{\text{ }^\circ\text{C}}{\% i.e.m}$

Ko‘riladigan obyekt o‘tish jarayoni egri chizig‘ining analitik ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$X_{ch}(t) = KX_k(t)\left(1 - e^{-\frac{t}{T}}\right) = 0,32X_k(t)\left[1 - e^{-\frac{t}{30}}\right]$$

Ushbu ifoda yordamida qaynatish kolonnasini «bug‘ bosimi – sharbatni chiqish temperaturasi» kanali bo‘yicha kechikishni hisobga olgan (1-egri chiziq), kechikishni hisobga olmagan holda (2-egri chiziq) qurilgan bo‘lib $\tau = 22 \text{ s}$ teng.



2.8-rasm. Qaynatish kolonnasining o‘tish xarakteristikasi
1-kechikishni hisobga olmagan holda;
2-kechikishni hisobga olgan holda.

Nazorat savollari

1. Avtomatik rostlash obyektlari deb nimaga aytildi?
2. Rostlash obyektlariga misollar keltiring.
3. Rostlash obyektning turlarini aytинг.
4. Rostlash obyektlarining qanaqa xossalari bor?

III BOB. AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMALARINING ANALIZI

3.1. TIPIK G‘ALAYONLANUVCHI FUNKSIYALAR


Har qanday avtomatik rostlash sistemasi rostlash obyekti va avtomatik rostlagichdan iborat bo‘lib, rostlash obyektida rostlanayotgan kattalikning qiymatini berilgan qiymatda saqlab turadi. Rostlanayotgan kattalikni berilgan qiymatdan chetga chiqishiga har xil g‘alayonlanuvchi kattaliklar sabab bo‘ladi. G‘alayonlanuvchi ta’sirlar sistemaning ichidan yoki tashqarisidan namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, gaz bilan qizdiriladigan non pishiriladigan pechlarda g‘alayonlanuvchi ta’sirlar bo‘lib gazning bosimi, atrof-muhit temperaturasining o‘zgarishi va sarflanadigan issiqlikning miqdori bo‘lishi mumkin. Biroq sistemalarning dinamik xarakteristikasini tekshirish uchun real g‘alayonlanuvchi ta’sirlarni ifodalaydigan tipik ta’sirlar tanlab olinadi. Kiruvchi g‘alayonlanuvchi ta’sirlarga *pog‘onasimon, impulsli va garmonik funksiyalar* kiradi.

Pog‘onasimon funksiya

Pog‘onasimon funksiya 3.1, a-rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishga ega. Bu funksiya $t < 0$, nolga teng, $t > 0$, A o‘zgarmas qiymatga teng.

$$X_k(t) = A1(t) = A[1] \quad (1)$$

A = 1 birlik funksiyasi deb ataladi.



3.1-rasm. Tipik g‘alayonlanuvchi ta’sirlar:
a) pog‘onasimon; b) impulsli; d) garmonik.

Impulsli funksiya

Impulsli funksiya deb quyidagi ifodaga aytildi:

$$\int_0^t \frac{d[l(t)]}{dt} dt = \int_0^t l'(t) dt = 1 \quad (2)$$

Bu yerda: $l(t)$ – birlik pog‘onasimon funksiya;
 $l'(t)$ – birlik funksiyaning hosilasi.

3.1-b rasmida ko‘rsatilgan funksiyada $t > 0$, uning qiymati cheksizlikka teng, $t = 0$ bo‘lsa, uning (1) ifoda bo‘yicha yuzasi 1 ga teng.

Impulsli funksiya:

$$X_k(t) = A l(t) \quad (3)$$

Bu yerda: A – o‘zgarmas son.

$A=1$ bo‘lsa:

$$X_k(t) = l(t) \quad (4)$$

Pog‘onasimon va impulsli funksiya orqali sistemalar va elementlarning o‘tish xarakteristikalari aniqlanadi.

Garmonik funksiya

Sinus yoki kosinus qonuni bo‘yicha o‘zgaradigan funksiya ga garmonik funksiya deb ataladi (3.1-d rasm) va quydagicha yoziladi:

$$X_k(t) = A_k \sin \omega t \quad (5)$$

yoki

$$X_k(t) = A \cos \omega t \quad (6)$$

Bu yerda: ω – tebranishlar chastotasi.

Garmonik funksiyalar orqali sistema va elementlarni chastotali xarakteristikalari tekshiriladi.

Sistema va elementlarni dinamik xarakteristikasi oldingi bobda tushuntirganimizdek chiqish kattaligini vaqt bo'yicha o'zgarishi bilan kirish kattaligi o'rtasidagi bog'lanishga aytiladi.

Sistema va elementlarning dinamik xarakteristikalarini quyidagi formalarda ifoda qilish mumkin:

1. Differensial tenglamalar.
2. Uzatish funksiyasi.
3. O'tish xarakteristikaları.
4. Chastotali xarakteristikalar.

3.2. SISTEMA VA ELEMENTLARNING DIFFERENSIAL TENGLAMASI

Ma'lumki, har qanday avtomatik qurilma alohida elementlardan tuzilgan. Mustaqil funksiyani bajaradigan avtomatik qurilmaning bir qismiga *avtomatika elementi* deb ataladi. Sistemanı har bir elementi ikki koordinata (kirish va chiqish) bilan xarakterlanadi.

Sistemaning chiqish koordinatasi $Y(t)$ va kirish koordinatasi $X(t)$ orasidagi bog'lanishni quyidagicha yozish mumkin:

$$Y(t) = f[x(t)] \quad (7)$$

(7) bog'lanish umumiyl holda sistema yoki elementning harakat tenglamasini ifodalaydi va u yoki bu kattalikni chiziqli bo'limgan funksiyasi hisoblanadi. Chiziqli bo'limgan funk-

siyani chiziqli bo‘lgan funksiyaga almashtirish *chiziqlashtirish* deb ataladi. Chiziqlashtirish natijasida sistema to‘g‘risida aniq ma’lumot olish uchun sistemaning differensial tenglamasini yozamiz. (7) bog‘lanishni chiziqlashtirib, n – darajali, o‘zgarmas koeffitsiyentli chiziqli differensial tenglama shaklida yozish mumkin:

$$a_n \frac{d^n Y(t)}{dt^n} + a_{n-1} \frac{d^{n-1} Y(t)}{dt^{n-1}} + \dots + a_1 \frac{d Y(t)}{dt} + a_0 Y(t) = b_m \frac{d^m X(t)}{dt^m} + \\ + b_{m-1} \frac{d^{m-1} X(t)}{dt^{m-1}} + \dots + b_1 \frac{d X(t)}{dt} + b_0 X(t) \quad (8)$$

Bu yerda: $Y(t)$ – elementni chiqish kattaligi;
 $X(t)$ – elementni kirish kattaligi;
 $a_n, a_{n-1}, \dots, a_1, a_0$ va $b_m, b_{m-1}, \dots, b_1, b_0$ – elementni konstruktiv xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas koeffitsiyent.

3.3. SISTEMALARINI UZATISH FUNKSIYASI

Avtomatik rostlash sistemalari va elementlari (8) ko‘rinishdagi differensial tenglamalar bilan yoziladi. Bu differensial tenglamalarni yechish ko‘p mehnat talab qilganligi sababli sistemalarning dinamikasini tekshirish uchun Laplas almashtididan foydalaniladi. Bu almashtirish differensial va integral tenglamalar o‘rniga algebraik tenglamalardan foydalanish imkonini beradi. (8) tenglamada $Y(t)$ va $X(t)$ funksiyani kompleks o‘zgaruvchili funksiyaga $P = \delta \pm j\omega$ quyidagi integral orqali o‘zgartiramiz:

$$\begin{cases} Y(P) = \int_0^\infty Y(t) e^{-pt} dt \\ X(P) = \int_0^\infty X(t) e^{-pt} dt \end{cases} \quad (9)$$

Bu yerda: δ va ω – haqiqiy o‘zgaruvchilar.

(8) – tenglamada $\frac{d}{dt} = P$ bilan belgilasak, unda (9) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{aligned} a_n P^n Y(P) + a_{n-1} P^{n-1} Y(P) + \dots + a_1 PY(P) + a_0 Y(P) &= \\ = b_m P^m X(P) + b_{m-1} P^{m-1} X(P) + \dots + b_1 PX(P) + b_0 X(P) \end{aligned} \quad (10)$$

(9) bog‘lanish – *Laplas integrali*, P – *Laplas operatori*,
(10) bog‘lanish esa, berilgan tenglamaning *operator formada yozilishi* deb ataladi.

Bu matematik operatsiyani Laplas *to‘g‘ri almashtirishi* deb ataladi va uning simvoli quyidagicha yoziladi:

$$L[f(t)] = F(P) \quad (11)$$

Bu yerda: $f(t)$ – $F(p)$ funksiyaning originali;

$F(p)$ – $f(t)$ funksiyaning tasviri.

Teskari Laplas almashtirishi quyidagicha yoziladi:

$$L^{-1}[F(P)] = f(t) \quad (12)$$

(10) tenglamada $X(p)$ va $Y(p)$ ni qavsdan chiqaramiz.

$$\begin{aligned} (a_n P^n + a_{n-1} P^{n-1} + \dots + a_1 P + a_0) Y(P) &= \\ = (b_m P^m + b_{m-1} P^{m-1} \dots b_1 P + b_0) \cdot X(P); \end{aligned} \quad (13)$$

Ta’rif: Dastlabki shartlari nolga teng bo‘lganda, chiqish kattaligi $Y(p)$ tasvirini kirish kattaligi $X(p)$ tasviriga nisbati sistemalarni *uzatish funksiyasi* deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi.

$$W(P) = \frac{y(P)}{X(P)} = \frac{b_m P^m + b_{m-1} P^{m-1} + \dots + b_1 P + b_0}{a_n P^n + a_{n-1} P^{n-1} + \dots + a_1 P + a_0} \quad (14)$$


Bu yerda $Y(p) = W(p) X(p)$ – chiqish kattaligi. (15)

Sistemalarning uzatish funksiyalari strukturali sxemalarni analiz qilish uchun keng ishlataladi. Biror-bir texnologik jarayonni avtomatlashtirishni loyihalashda, rostlagichlarni tuzatish koeffitsiyentlarini aniqlashda hamda ishlab turgan

sistemaning ish jarayonini tekshirishda texnologik jarayon borishini xarakterlaydigan matematik bog'lanishlarni aniqlash talab qilinadi.

Avtomatik rostlash sistemalarini ifodalovchi matematik tenglamalarni yozish qulay bo'lishi uchun sistemalarni bir nechta elementar zvenolarga bo'linadi. Bu elementar zvenolar esa kichik darajali oddiy differensial tenglamalar bilan yoziladi. Avtomatik rostlash sistemasini esa bir nechta elementar zvenolarni bir-biri bilan bog'langan strukturali sxema ko'rinishida ifodalanadi. Avtomatik rostlash sistemasi tarkibiga kiruvchi elementlar dinamik xarakteristikalarini hamda ta'sirlar berish yo'naliishlarni grafik tarzda ifodalovchi sxemaga ARS ning *strukturali sxemasi* deb ataladi.

Strukturali sxemalarning elementlari 3.2-rasmda ko'r-satilgan.



3.2-rasm. Strukturali sxema elementlari:


- a) ARS zvenosi;
- b) tarmoqlanish nuqtasi;
- d) taqqoslash elementi.

Avtomatik rostlash sistemalarining dinamik xossalari faqatgina elementlarning dinamik xarakteristikalari bilangina emas, balki ularni bog'lanish tartibi bilan ham xarakterlanadi.

Bog'lanishlar *ketma-ket*, *parallel* va *teskari aloqali* tur-larga bo'linadi.

Ketma-ket bog'lanish

Ketma-ket bog'langan zvenolarda oldingi turgan zvenoning chiqish kattaligi keyingi zveno uchun kirish kattaligi bo'lib hisoblanadi.



3.3-rasm. Zvenolarning ketma-ket bog'lanishi.

Birinchi zvenoning uzatish funksiyasi

$$W_1(P) = \frac{X_{ch1}}{X_{k1}} \quad (16)$$

Ikkinchini zvenoning uzatish funksiyasi

$$W_2(P) = \frac{X_{ch2}}{X_{k2}} \quad (17)$$

$X_{k1} = X_{k2}$ ekanligini hisobga olsak

$$W(P) = \frac{X_{ch2}}{X_{k1}} = \frac{X_{ch1} \cdot X_{ch2}}{X_{k1} \cdot X_{k2}} = W_1(P) \cdot W_2(P) \quad (18)$$


Ta'rif: Ketma-ket bog'langan zvenolarning umumiy uzatish funksiyasi alohida zvenolar uzatish funksiyalari ko'paytmasiga teng.

Parallel bog'lanish

Parallel bog'langan zvenolarning kirishiga bir xil kattalik berilib, chiqish kattaliklari qo'shiladi.

3.4-rasmida 3 ta parallel bog'langan zveno berilgan.

$$X_{ch} = X_{ch1} + X_{ch2} + X_{ch3}$$



3.4-rasm. Parallel bog'langan zvenolar.

Birinchi, ikkinchi va uchinchi zvenolarning uzatish funksiyalari

$$W_1(P) = \frac{X_{ch1}}{X_K}; \quad W_2(p) = \frac{X_{ch2}}{X_K}; \quad W_3(p) = \frac{X_{ch3}}{X_K} \quad (19)$$

Parallel bog'langan zvenolarning umumiy uzatish funksiyasi


$$W(p) = \frac{X_{ch}}{X_K} = \frac{X_{ch1} + X_{ch2} + X_{ch3}}{X_K} = \frac{X_{ch1}}{X_K} + \frac{X_{ch2}}{X_K} + \frac{X_{ch3}}{X_K};$$

$$W(p) = W_1(p) + W_2(p) + W_3(p) \quad (20)$$

Ta'rif: Parallel bog'langan zvenolarning umumiy uzatish funksiyasi alohida zvenolarining uzatish funksiyalari yig'indisiga teng.

Teskari aloqali bog'lanish

Teskari aloqali bog'lanishda bir zvenoning chiqish katagini ikkinchi zveno orqali o'tib, birinchi zvenoning kirishiga beriladi.



3.5-rasm. Teskari aloqali zveno.

Bu yerda: $W_1(p)$ – to'g'ri ulangan zvenoning uzatish funksiyasi.

$W_{ta}(p)$ – teskari aloqali zvenoning uzatish funksiyasi
Teskari aloqali zvenolar sxemasidan ko'rinish turibdiki,

$$X_{k1} = X_k - X_{ta} \quad (21)$$

to‘g‘ri zanjir tenglamasi

$$X_{ch} = W_1(p) X_{kl} \quad (22)$$

Teskari aloqali zvenoning tenglamasi:

$$X_{ta} = W_{ta}(p) \cdot X_{ch} \quad (23)$$

(22), (23) ifodalarni hisobga olsak,

$$X_{ch} = W_1(P) [X_K - W_{ta}(P) X_{ch}] \quad (24)$$

yoki

$$X_{ch} = \frac{W_1(P)}{1 + W_1(P) W_{ta}(P)} \cdot X_K \quad (25)$$

Teskari aloqali zvenoning umumiy uzatish funksiyasi:

$$W(P) = \frac{X_{ch}}{X_K} = \frac{W_1(P)}{1 + W_1(P) \cdot W_{ta}(P)} \quad (26)$$

3.4. SISTEMALARLING VAQTLI (O‘TISH) XARAKTERISTIKALARI

Sistemalarning kirishiga pog‘onasimon g‘alayonlanish berilganda o‘zgaradigan o‘tish jarayonining egri chizig‘iga sistemalarning vaqtli (o‘tish) xarakteristikasi deyiladi.

O‘tish xarakteristikasi olish uchun sistemaning muvozanat holati olinib, kirish koordinatasi 1 ga teng bo‘lgan qiymatda pog‘onasimon o‘zgartiriladi (3.6-a rasm).

Shundan so‘ng sistemada o‘tish jarayoni boshlanib, sekin-asta chiqish koordinatasi ham o‘zgara boshlaydi. Sistema qanaqa differensial tenglama bilan yozilishiga ko‘ra o‘tish jarayoni har xil bo‘ladi.

O‘tish xarakteristikasi *eksperimental* va *analitik* usulda olinadi.

O‘tish xarakteristikasi eksperimental usulda ishlab turgan obyekt uchun tajriba yo‘li bilan olinadi. Bunda rostlash organini kirish kattaligi maksimal qiymatining 10 %ni miqdoriga

mos harakatlantirish uchun obyektni kirishiga pog'onasimon o'zgarish beriladi.

Shundan so'ng chiqish kattaligining vaqt bo'yicha o'zgarishi obyektda ikkinchi muvozanat hosil bo'lganiga qadar asbob yordamida qayd qilinadi.


O'tish egri chizig'i aniq ketma-ketlikda qayta ishlanadi (3.6, b-rasm).

O'tish egri chizig'ini egilgan qismidan urinma o'tkaziladi; kechikish vaqt - τ , obyektni vaqt o'zgarmas koeffitsiyenti - T_0 (s); o'z-o'zidan to'g'rilanish koeffitsiyenti $\rho = X_{po}(t)/y(t)$; o'tish tezligi

$$\nu = 1/T_0 p(C^{-1}); \quad (27)$$

aniqlanadi.

Bu yerda: $X_{ro}(P)$ g'alayonlashish bergan vaqtda rostlash organining harakati. $U(t)$ – yangi muvozanat holatida rostlanadigan kattalikning qiymati.



3.6. a,b-rasm. Zvenoning o'tish xarakteristikalari:
a) analitik usulda olingan; b) tajriba usulida olingan.

1 – kirish kattaligi; 2 – chiqish kattaligi.

3.5. SISTEMALARING CHASTOTALI XARAKTERISTIKALARI

Sistemaning kirishiga sinus qonuni bo'yicha g'alayonlanish bergandagi o'zgarishiga sistemalarning *chastotali xarakteristikasi* deyiladi.

$$X_K(t) = A_K \sin \omega t \quad (28)$$

Bu yerda: A_K – kirish kattaligini amplitudasi
 ω – kirish kattaligi o'zgarishining chastotasi.

Agar zveno chiziqli bo'lsa, uning chiqishida ham sinus qonuni bo'yicha shunday chastotali, faqat boshqa amplitudali A_{ch} o'zgarish bo'ladi.

$$X_{ch}(t) = A_{ch} \sin(\omega \cdot t + \varphi) \quad (29)$$

Agar elektrotexnikada qo'llaniladigan simvolik yozish formasini qo'llasak,

$$\left. \begin{aligned} X_K &= A_K \sin \omega \cdot t = A_K e^{j\omega t} \\ X_{ch} &= A_{ch} (\sin \omega \cdot t + \varphi) = A_{ch} e^{j(\omega t + \varphi)} \end{aligned} \right\} \quad (30)$$

ifodani olamiz.

Bu yerda: $j^2 = \sqrt{-1}$

Unda sistemanı uzatish funksiyasi

$$W(j\omega) = \frac{A_{ch} e^{j(\omega t + \varphi)}}{A_K e^{j\omega t}} = A(\omega) e^{j\varphi} \quad (31)$$

Chastotali uzatish funksiyasini ham kompleks uzatish funksiyasi deyiladi. Shuning uchun ham kompleks son tarzida ifodalaymiz.

$$W(j\omega) = P + jQ \quad (32)$$


Bu yerda: P – kompleks sonning haqiqiy qismi

Q – kompleks sonning mavhum qismi


$$A(\omega) = \frac{A_{ch}}{A_K} - \text{kompleks sonning moduli (33)}$$

$$A(\omega) = \sqrt{P^2(\omega) + Q^2(\omega)} \quad (34)$$

$$\varphi(\omega) = \arctg \frac{Q(\omega)}{P(\omega)} - \text{kompleks sonning fazasi (35)}$$



3.7-rasm. Chastotali funksiya.



3.8-rasm. Amplituda-faza-chastotali xarakteristika.

Amplitudalar kuchlanishi $A(\omega)$ va fazalar siljishi $\phi(\omega)$ chastota ω o'zgarishi bilan o'zgaradi.

Chastota $\omega=0 \div \infty$ o'zgarganda $W(j\omega)$ vektorni kompleks tekislikda chizadigan egri chizig'iqa *amplituda faza chastotali xarakteristika* (AFChX) deb ataladi.

Bundan tashqari amplituda chastotali AChX $A(w) = f(w)$; faza chastotali FChX $\phi(\omega) = j(\omega)$ xarakteristikalar ham mavjud.

Bu chastotali xarakteristikalarini tuzish va hisoblash ancha mehnatni talab qiladi. Bu mehnatni yengillatish maqsadida logarifmik chastotali xarakteristikalar (LChX) ishlataladi.

LChX tuzish uchun (31) tenglamani logarifmik ko'rinishda yozish kerak:

$$L(\omega) = 20 \lg |W(j\omega)| = 20 \lg A(\omega) \quad (36)$$

3.6. TIPIK DINAMIK ZVENOLAR, ULARNI UZATISH FUNKSIYASI

Tipik dinamik zvenolarga inersiyasiz (kuchaytirish), 1-darajali nodavriy (inersiyali) zveno, 2-darajali zveno (tebranma va nodavriy), differensial, integral va kechikish zvenolar kiradi.

Har qanday vaqt mobaynida chiqish kattaligi kirish kattaligiga proporsional bo'lgan zvenoga *kuchaytiruvchi* yoki *inersiyasiz zveno* deb ataladi. Bu zveno kirish kattaligini bir lahzada chiqish kattaligiga uzatadi. Bu zvenolarga tishli mexanizm, elektron kuchaytirgich, reduktor va hokazolar misol bo'la oladi.

Kirish kattaligi pog'onasimon o'zgarganda chiqish kattaligi eksponent qonun bo'yicha o'zgarib yangi muvozanat qiymatiga intiladigan zvenoga *nodavriy* yoki *birinchi darajali inersiyali zveno* deyiladi.

Inersiyali zveno deyilishiga sabab, chiqish kattaligi birdaniga o'zgarmasdan birmuncha vaqt o'tganidan so'ng o'zgarishidir. Bu zvenoga magnitli qo'shich, termoelektrik o'zgartgich, qarshilik termoo'zgartgich, elektrodvigatel va issiqlik almashinuv apparatlari misol bo'la oladi.

Tebranuvchi zvenolarda kirish signaliga pog'onasimon o'zgarish berilganda, chiqish kattaligi tebranma harakat qilib muvozanat holatga qaytadi. Agar tebranma harakat to'lqini vaqt bo'yicha so'nsa, zveno *turg'un so'muvchi zveno*, tebranma harakat to'lqini vaqt bo'yicha kuchaysa, zveno *noturg'un* bo'ladi. Bu zvenoga LC elektr zanjir, membranalni ijro etuvchi mexanizm, qalqovichli difmanometrlar misol bo'ladi.


Chiqish kattaligining o'zgarish tezligi kirish kattaligiga proporsional bo'lgan zvenoga *integrallovchi zveno* deyiladi. Bu zvenoga elektrik ijro etuvchi mexanizm, gidravlik ijro etuvchi mexanizm misol bo'ladi.






Differensiallovchi zvenoda esa chiqish kattaligi kirish kattaligining o'zgarish tezligiga proporsionaldir. Bu zvenoga RC,RL elektrik zanjirlar misol bo'ladi.

Sof kechikishli zvenosida, kirish kattaligi o'zgarganidan so'ng biroz vaqt o'tgach kechikib chiqish kattaligi o'zgaradi. Bu zvenoga lentali transportyor, uzun truboprovod, uzun elektrik tarmoq misol bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan zvenolarning tenglamasi, uzatish funksiyasi va o'tish xarakteristikalarini 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Nº	Zveno-nning tipi	Zvenoning tenglamasi	Uzatish funksiyasi	O'tish oxiri chizig'i
1.	Proporsional inersiyasiz kuchaytirish zveno	$X_{ch} = k_y X_K$ uzatish koeffitsiyenti	$W_K(P) = k_y$	

2.	Birinchi darajali inersiyali yoki nodavriy zveno	$T_a \frac{dx_{ch}}{dt} + x_{ch} = k_a x_{ch}$ o'zgarmas vaqt koefitsiyenti k_a – kuchay-tirish koefitsiyenti	$W_a(P) = \frac{k_a}{T_a P + 1}$	
3.	Ikkinchchi darajali inersiyali yoki tebranuvchi zveno	$T_{R_2}^2 \frac{d^2 x_{ch}}{dt^2} + T_{k_1} \frac{dx_{ch}}{dt} + x_{ch} = k_K x_K$	$W_K(P) = \frac{k_K}{T_{K_2}^2 P^2 + T_{K_1} P + 1}$	
4.	Integrallovchi yoki astatik zveno	$x_{ch} = k_I \int_0^t x_K dt$	$W_I(P) = \frac{k_I}{P}$	
5.	Differensial-lovchi yoki ideal zveno	$x_{ch} = k_D \frac{dx_K}{dt}$	$W_D(P) = k_D(P)$	
6.	Sof kechikish zveno	$x_{ch}(t) = x_K(t - \tau)$	$W_3(P) = e^{-P\tau}$	

1-misol.

Tomat pastasi qaynatgichning «bug‘ sarfi mahsulotning chiqish temperaturasi» kanali bo'yicha differensial tenglamasi quyidagi ifoda bilan yoziladi:

$$100 \frac{dX_{ch}(t)}{dt} + X_{ch}(t) = 0,2 X_K(t - 22)$$

Bu yerda: $K = 0,2 \frac{\text{°C}}{\text{kg/s}}$

T va τ sekundlarda o'lchanadi.

Uzatish funksiyasini aniqlang va kechikishni hisobga olmagan holda amplituda-faza-chastotali xarakteristikasini quring.

Yechilishi:

Differensial tenglamani operator formada yozamiz:

$$(100p + 1)X_{ch}(\rho) = 0, 2X_K(\rho)$$

Bu yerdan obyektni uzatish funksiyasini topamiz:

$$W(\rho) = \frac{X_{ch}(\rho)}{X_K(\rho)} = \frac{0,2}{100\rho + 1}$$

Chastotali uzatish funksiya quyidagicha ifodalanadi:

$$W(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega)$$

$$\text{Bu yerda: } U(\omega) = \frac{K}{1+T^2\omega^2} \quad V(\omega) = -j \frac{KT\omega}{1+T^2\omega^2}$$

$$\text{T va K ning qiymatlarini qo'ysak, } U(\omega) = \frac{0,2}{[1+(100\omega)^2]}$$

$V(\omega) = -20\omega / [1+(100\omega)^2]$; ω ga 0 dan ∞ gacha qiymatlar berib, hisoblaymiz.

$\omega, 1/\text{s}$	0	0.005	0.01	0.02	0.05	∞
$U(\omega)$	0.2	0.16	0.01	0.04	0.008		0
$V(\omega)$	0	-0.08	-0.1	-0.08	-0.008		0


Hisoblangan qiymatlar yordamida rostlash obyektini amplituda-faza-chastotali xarakteristikasini quramiz.

3-misol.

Ikkinci darajali nodavriy zveno uchun berilgan uzatish funksiyasi yordamida amplituda faza-chastotali xarakteristikasini quring.

$$W(p) = \frac{0,2}{25p^2 + 10p + 1}$$

Bunday uzatish funksiya bilan FTL-pechining «gaz sarfi-kamera temperaturasi» kanali bo'yicha yozish mumkin. Amp-



3.9-rasm. Tomat pastasi qaynatgichining amplituda-faza-chastotali xarakteristikasi.

lituda-faza-chastotali xarakteristika quyidagiga teng:

$$W(j\omega) = \frac{0,2}{25(j\omega)^2 + 10j\omega + 1}$$

yoki

$$W(j\omega) = \frac{0,2}{[1 - 25\omega^2] + 10j\omega}$$

Kasrning surat va maxrajini $[(1 - 25\omega^2) - 10j\omega]$ ga ko‘paytiramiz va

$$W(j\omega) = \frac{0,2[(1 - 25\omega^2) - 10j\omega]}{(1 - 25\omega^2)^2 - 100(j\omega)^2}$$

yoki


$$W(j\omega) = \frac{0,2(1 - 25\omega^2)}{(1 - 25\omega^2)^2 + 100\omega^2} - j \frac{2\omega}{(1 - 25\omega^2)^2 + 100\omega^2}$$

$$U(\omega) = \frac{0,2(1 - 25\omega^2)}{(1 - 25\omega^2)^2 + 100\omega^2}$$

$$V(\omega) - j \cdot \frac{2\omega}{(1 - 25\omega^2)^2 + 100\omega^2}$$

bilan belgilab, ω ga 0 dan ∞ gacha qiymatlar berib, kompleks tekislikdagi ikkinchi darajali nodavriy zvenoning amplituda faza-chastotali xarakteristikasini quramiz.

ω , 1/s	0	0.05	0.1	0.2	0.3	0.5	...	∞
$U(\omega)$	0.2	0.168	0.098	0	-0.024	-0.02		0
$V(\omega)$	0	-0.089	0.128	-0.1	-0.057	-0.2		0



3.10-rasm. Ikkinchı darajali nodavriy zvenoning amplituda-faza-chastotali xarakteristikasi.


Nazorat savollari

1. Tipik g‘alayonlanuvchi funksiyalarini tushuntiring.
2. Avtomatik rostlash sistemasining dinamikasi qanaqa formalarda namoyon bo‘ladi?
3. Avtomatik rostlash sistemasining uzatish funksiyasi deb nimaga aytiladi?
4. Bog‘lanishlar necha turga bo‘linadi?
5. Sistemalarning vaqtli xarakteristikalarini deb nimaga aytiladi?
6. Sistemalarning chastotali xarakteristikasini tushuntiring.
7. Tipik dinamik zvenolarga misollar keltiring.

IV BOB. AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMALARINING TURG'UNLIGI VA SIFATINI ANIQLASH

Avtomatik rostlash sistemalarining ishga yaroqli ekanligini aniqlaydigan dinamik xossalardan biri, ularning turg'unligidir. Shuning uchun sistemalarni tekshirishda ularni turg'unlikka analiz qilish talab qilinadi.

Har qanday ARS rostlanayotgan kattalikning qiymatini berilgan qiymatda saqlab turadi. Bunda obyektga ta'sir qiladigan g'alayonlovchi ta'sirlar xalaqit beradi. Agar ARS g'alayonlovchi ta'sir berilgandan so'ng, yana muvozanat holatiga qaytsa bunday sistemalar *turg'un* yoki *ishga yaroqli sistemalar* deyiladi. Turg'un sistemalarni o'tish xarakteristikalari *davriy* yoki *so'muvchi* tebranma bo'ladi (4.1-a, b rasm).



4.1-rasm. ARSning o'tish xarakteristikalari:

- a), b) – turg'un ARS uchun; d), e) – noturg'un ARS uchun.

Agar sistemada hosil bo'ladigan g'alayonlanuvchi ta'sirlar natijasida to'lqinli o'tish xarakteristikasi vaqt bo'yicha os-hsa (4.1-d, e rasm) bunday sistemalar *noturg'un* yoki *ishga yaroqsiz sistemalar* deyiladi.

ARSlarning turg‘unligi uni tarkibiga kiradigan elementlarning dinamik xossalariga bog‘liq. Sistemalarning dinamik xossalarini yozadigan differensial tenglamalarni bilish orqali turg‘unlikni aniqlash mumkin.

Sistemalarning turg‘unligini differensial tenglamalarini yechmasdan aniqlaydigan usullarga *turg‘unlik kriteriyalari* deyiladi.

Algebraik va chastotali kriteriyalar mavjud.

4.1. RAUSS-GURVITS ALGEBRAIK KRITERIYASI

Chiziqli sistemalarning turg‘unligi Rauss-Gurvits kriteriyasi yordamida aniqlash uchun sistemaning differensial tenglamasi zarur.

Masalan:

$$\begin{aligned} a_0 \frac{d^n X_{ch}}{dt^n} + a_1 \frac{d^{n-1} X_{ch}}{dt^{n-1}} + \dots + a_{n-1} \frac{d X_{ch}}{dt} + a_n X_{ch} = \\ b_0 \frac{d^m X_K}{dt^m} + b_1 \frac{d^{m-1} X_K}{dt^{m-1}} + \dots + b_{m-1} \frac{d X_K}{dt} + b_m X_K \end{aligned} \quad (1)$$

Bu yerda X_k va X_{ch} – kirish va chiqish kattaligi.

a_0, a_1, \dots, a_n – tenglamaning o‘zgarmas koefitsiyentlari.

b_0, b_1, \dots, b_m – tenglamaning o‘zgarmas koefitsiyentlari.

Tenglama operator formada quyidagicha yoziladi:

$$\frac{d}{dt} = P \quad (2)$$

$$\begin{aligned} \text{Unda } & (a_0 P^n + a_1 P^{n-1} + \dots + a_{n-1} P + a_n) X_{ch} = \\ & = (b_0 P^m + b_1 P^{m-1} + \dots + b_{m-1} P + b_m) X_K \end{aligned} \quad (3)$$

Agar tashqi ta’sirlarni hisobga olmasa, tenglama quyidagi holga keladi:

$$(a_0 P^n + a_1 P^{n-1} + \dots + a_{n-1} P + a_n) X_{ch} = 0 \quad (4)$$

Unda ifoda

$$a_0 P^n + a_1 P^{n-1} + \dots + a_{n-1} P + a_n = 0 \quad (5)$$

holda yoziladi.

(5) ifoda sistemani xarakteristik tenglamasi deyiladi.

Ta’rif: Rauss-Gurvits kriteriyasiga asosan birinchi va ikkinchi darajali sistemalarning turg‘unligining yetarli va zarur shartini xarakterlovchi tenglamada o‘zgarmas koeffitsiyentlar noldan katta bo‘lishi kerak.

Birinchi darajali sistemaning xarakteristik tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$a_0 P + a_1 = 0 \quad (6)$$

Turg‘unlik sharti – o‘zgarmas koeffitsiyentlar musbat bo‘lishi kerak.

$$a_0 > 0; a_1 > 0 \quad (7)$$

Ikkinchi darajali sistemaning xarakteristik tenglamasi;

$$a_0 P^2 + a_1 P + a_2 = 0 \quad (8)$$

Turg‘unlik sharti esa,

$$a_0 > 0; a_1 > 0; a_2 > 0 \quad (9)$$

Uchinchi darajali sistemaning xarakteristik tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$a_0 P^3 + a_1 P^2 + a_2 P + a_3 = 0 \quad (10)$$

Turg‘unlik shartlari esa;

1) Xarakteristik tenglamada hamma o‘zgarmas koeffitsiyentlar musbat bo‘lishi kerak:

$$a_0 > 0; a_1 > 0; a_2 > 0; a_3 > 0 \quad (11)$$

2) Xarakteristik tenglamani o‘rta koeffitsiyentlarining ko‘paytmasi chetki koeffitsiyentlari ko‘paytasidan katta bo‘lishi kerak.

$$a_1 a_2 > a_0 a_3 \quad (12)$$

To‘rtinchi darajali sistemaning xarakteristik tenglamasi

$$a_0 P^4 + a_1 P^3 + a_2 P^2 + a_3 P + a_4 = 0 \quad (13)$$

Turg‘unlik shartlari quyidagicha:

$$1) a_0 > 0; a_1 > 0; a_2 > 0; a_3 > 0; a_4 > 0 \quad (14)$$

$$2) a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0 \quad (15)$$

5-darajali sistemalardan katta sistemalar uchun turg‘unlik shartlari murakkablashadi. Shuning uchun yuqori darajali sistemalarning turg‘unligini aniqlashda Rauss-Gurvits kriteriyasi ishlatilmaydi.

Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, murakkab sistemalarda tenglamani har xil koeffitsiyentlarining sistemaning turg‘unligiga ta’sirini o‘rganish imkoniyati yo‘qligi va xarakteristik tenglamaning hamma koeffitsiyentlarini aniqlash har doim ham mumkin emaslidir.

4.2. CHASTOTALI TURG‘UNLIK KRITERIYALARI

Muhandislik amaliyotida chastotali kriteriyalar algebraik kriteriyalarga nisbatan qulayliklarga ega, jumladan,

1. Yuqori darajali differensial tenglamalar bilan yozildigan sistemalar uchun qo‘llashning oddiyligi.

2. Turg‘unlikni analiz qilishni tekislikda chizilgan amplituda-fazali xarakteristikalar bo‘yicha tekshirish qulayligi.

Mixaylov kriteriyasi

Yopiq sistemani (5) xarakteristik tenglamasida chap qismini alohida ko‘ramiz.

$$D(P) = a_0 P^4 + a_1 P^{n-1} + \dots + a_{n-1} P + a_n \quad (16)$$

$P=j\omega$, deb qarasak,

$$D(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega) \quad (17)$$

haqiqiy qism juft darajali

$$U(\omega) = a_n - a_{n-2}\omega^2 + a_{n-4}\omega^4 + \dots \quad (18)$$

Mavhum qism esa toq darajali chastotalarni tashkil qiladi.


$$V(\omega) = a_{n-1}\omega - a_{n-3}\omega^3 + a_{n-5}\omega^5 \quad (19)$$

Agar hamma koeffitsiyentlar va chastota qiymatlari berilgan bo'lsa, unda $D(j\omega)$ kompleks tekislikda $U(\omega)$ va $V(\omega)$ koordinatali nuqta yoki vektordan iborat.

Agar chastota ω ning qiymatini 0 dan ∞ ga uzluksiz o'zgartirsak, unda vektor qiymati va yo'nalishi bo'yicha o'zgarib, egri chiziq chizadi. Bu egri chiziqni Mixaylov egri chizig'i (godografi) deyiladi (4.2-rasm).

2-jadval

ω	0	∞
$U(\omega)$	a_n		∞
$V(\omega)$	0	∞



4.2-rasm. Kompleks tekislikda Mixaylov egri chizig'i.

Mixaylov egri chizig‘i nuqtalar asosida chastota ω ga 0 dan ∞ gacha bo‘lgan qiymatlar berilib (18), (19) formulalar yordamida hisoblanib, 2-jadvalga yoziladi va kompleks tekislikda ko‘riladi (4.2-rasm). Agar (5) xarakteristik tenglama n manfiy haqiqiy qismli ildizga va m musbat haqiqiy qismli ildizga ega bo‘lsa, unda $\omega = 0 - \infty$ chegarada o‘zgarganda $D(j\omega)$ vektorning umumiy burilish burchagi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\varphi = (n - 2m) \frac{\pi}{2};$$

Sistemalarning turg‘unligining zaruriy sharti $D(j\omega) = 0$ chap yarim tekislikda ildizlari $m = 0$ bo‘lishi kerak. Unda $\omega = 0 \div \infty$ bo‘lganda burilish burchagi

$$\varphi = \frac{n\pi}{2} \quad (20)$$

(20) – zaruriy turg‘unlik sharti, lekin yetarli turg‘unlik sharti emas.

Sistemaning zaruriy va yetarli turg‘unlik sharti barcha n ildizlarda bitta ham kompleks tekislikning mavhum o‘qida yotadigan qiymati bo‘lmasligi kerak:


$$D(j\omega) \neq 0 \quad (21)$$

(20) va (21) ifodalar – Mixaylov kriteriyasining matematik ifodasi.

Ta’rif: Chiziqli dinamik sistemalar turg‘unligining yetarli va zaruriy sharti Mixaylov egri chizig‘i chastota $\omega = 0 \div \infty$ chegarada o‘zgarganda, o‘zining harakatini kompleks tekislikdagi musbat yarim o‘qda yotgan nuqtadan boshlab, soat strelkasiga qarshi harakatlanib, hech qayerda nolga teng bo‘lmasdan kompleks tekislikdagi n kvadratlarni ketma-ket bosib o‘tishi kerak.

Bu yerda n-xarakteristik tenglamaning darajasi.

Mixaylov egri chizig‘ining koordinatalari uchun quyidagi asosiy xossalari kelib chiqadi:



- 4.3-rasm. a) har xil darajali sistemalar uchun Mixaylov egri chizig'i;
 b) davriy zveno chegaralari uchun turg'unlik chegaralari;
 d) tebranmas zveno uchun turg'unlik chegaralari.

1) Mixaylov egri chizig'i ($\omega=0$) bo'lganda doimo kompleks tekislikni haqiqiy o'qida koordinata boshidan a_n masofada turadi.

2) Mixaylov egri chizig'inining oxiri juft darajali xarakteristik tenglamada $U(\omega)$ o'qqa parallel ravishda cheksizlikka intiladi, toq darajali xarakteristik tenglamada esa, $-j V(\omega)$ - o'q parallel n-kvadratda turadi.

4.3-a, b, d rasmda har xil darajali sistemalar uchun Mixaylov egri chizig'i tasvirlangan.

Chastota $\omega = 0$ bo'lganda $a_n = k$ – sistemanini kuchaytirish koeffitsiyenti hisoblanadi.

4.3. NAYKVIST TURG'UNLIK KRITERIYASI

Yopiq sistemaning turg'unligini Naykvist kriteriyasi orqali aniqlashda, bu sistemaning zvenolari ulangan bir nuqtasida shu yerdan sistemaga A amplituda va φ fazali garmonik g'alayonlanish beriladi. Bu signal sistemanini aylanib o'tib, amplituda va fazasi kirish signalidan farq qiladigan qiymatda chastotasi o'zgarmagan holatda chiqish blokida hosil bo'ladi.

Ochiq sistemanı amplituda-faza xarakteristikasi quyidagicha topiladi:

$$W(j\omega) = P(\omega) + jQ(\omega) = A(\omega)e^{j\varphi(\omega)} \quad (22)$$

Bu yerda $P(\omega)$ – AFX ning haqiqiy qismi.


$Q(\omega)$ – AFX ning mavhum qismi.

$$A(\omega) = \sqrt{P^2(\omega) + Q^2(\omega)} \text{ – AFX ning moduli} \quad (23)$$

$$\varphi(\omega) = \arctg \frac{Q(\omega)}{P(\omega)}; \text{ – AFX ning fazasi} \quad (24)$$

$W(j\omega)$ – vektorni chastotasi $\omega=0 \div \infty$ o‘zgarganda kompleks tekislikda chizadigan egri chiziqlqa Mixaylov godografi deyiladi.


Ta’rif: Yopiq sistema turg‘unligining yetarli va zaruriy shartlari: a) Ochiq sistema godografi chastota $\omega=0 \div \infty$ o‘zgarganda kompleks tekislikda $(-1, 0j)$ nuqtani bosib o‘tmasligi kerak. (4.4-rasm. 1). b) Agar $(-1; 0j)$ nuqtani aylanib o‘tsa (4.4-rasm. 2). – sistema noturg‘un; d) Agar shu nuqta ustidan o‘tsa – sistema turg‘unlik chegarasida turgan bo‘ladi (4.4-rasm 3).



4.4-rasm. Uchinchi darajali sistemaning amplituda-faza-chastotali xarakteristikalari: 1 – turg‘un sistema; 2 – noturg‘un sistema; 3 – sistema turg‘unlik chegarasida.

4.4. ROSTLASH SIFATINI ANIQLASH

Avtomatik rostlash sistemasi strukturasi, sistemaning kam statik xatoligini ta'minlaydigan kattaliklari va turg'un ishlaydigan strukturasi aniqlangandan so'ng, uning kerakli talabga javob beradigan sifat ko'rsatkichlarini aniqlash talab qilinadi. Avtomatik rostlash sistemalarini sifatlari ishlashini xarakterlaydigan kattaliklar – bular sistemani kirishiga birlik pog'onasimon g'alayonlanish bergandagi o'tish jarayonini xarakterlaydigan kattalikdir (4.5-rasm);



4.5-rasm. Turg'un sistemaning o'tish xarakteristikalari.

1. *Rostlash vaqt* t_p deb, sistemaga g'alayonlanish bergen vaqtdan boshlab rostlanayotgan kattalikni muvozanat holatidagi qiymatidan chetga chiqishi oldindan berilgan qiymatdan kichik bo'lган vaqtga aytildi.

Odatda, rostlash vaqt tugagandan so'ng rostlanayotgan kattalikning qiymati muvozanat holatidagi qiymatdan chetga chiqishi 5% dan oshmasligi kerak.

Statik xato ΔX o'tish jarayoni tugagandan so'ng rostlanayotgan kattalikni berilgan qiymatdan chetga chiqish qiymatiga teng bo'lган kattalikdir. Odatda statik xato texnik sharoitlarni hisobga olib beriladi.

Dinamik xato deb sistemani muvozanat holatida rostlanayotgan kattalikni berilgan qiymatidan chetga chiqishiga teng bo'lган kattalikka aytildi.

Rostlanayotgan kattalikning muvozanat holati qiymatidan yangi muvozanat holatiga nisbatan maksimal chetga chiqishi X_{\max} ortiqcha rostlash deb ataladi. Ortiqcha rostlash qiymati foizlarda ifodalanadi.

$$G = \frac{X_{\max} - X(\infty)}{X(\infty)} \cdot 100\% \quad (25)$$

ortiqcha rostlash qiymati $10 \div 30$ dan oshmasligi kerak.

4. O'tish jarayonining tebranishga so'nish darajasi bilan aniqlanadi.

$$\psi = \frac{\delta - \Delta X(3)}{\delta} \quad (26)$$

So'nish darajasi qancha katta bo'lsa, rostlash shuncha sifatli hisoblanadi. Turg'un ARS uchun $0 \leq \psi \leq 1$.

Demak, statik va dinamik xatolarning kichikligi, rostlash vaqtining va so'nish darajasining yuqoriligi rostlash sifati uchun muhimdir.

Avtomatik rostlash sistemalarining ba'zi xossalari asosida ham sifat ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Shu maqsadda *sifat kriteriyalaridan* foydalaniladi.

Uchta guruh sifat kriteriyalari mavjud: Birinchi guruh sifat kriteriyasiga rostlash sistemalarning anqlik kriteriyalari kiradi.

Ikkinci guruhga esa turg'unlikni ta'minlaydigan qo'shimcha zaxira qiymatlarni aniqlaydigan kriteriyalar kiradi.

Uchinchi guruh sifat kriteriyalari esa rostlash sistemalarini harakatini ko'rsatadi.

Baholashning umumiy usullaridan biri sifatni integral baholash usulidir. Oddiy integral baholash quyidagicha yoziladi:

$$I_1 = \int_0^{\infty} X_n(t) dt \quad (27)$$

Bu yerda $X_n(t)$ – rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishi.

Agar sistema turg'un va $X(\infty) = 0$ bo'lsa (27) integral oxirgi qiymatga teng bo'ladi.

(27) ifodaning geometrik ma'nosi o'tish jarayoni egri chizig'inining yuzasiga tengdir. O'tish jarayoni qancha tez so'nsa, bu yuza shuncha kichik bo'ladi. Shuning uchun sistemaning kattaliklari shunday tanlanadiki, natijada (27) ifoda integrali minimumga intilsin.

$$I_1 = \int_0^{\infty} X_n(t) dt \rightarrow \min \quad (28)$$

Amaliyotda kvadrat integral baholash ham keng qo'llaniladi.

$$I_2 = \int_0^{\infty} X^2 n(t) dt \rightarrow \min \quad (29)$$

1-misol. Mixaylov turg'unlik kriteriyasi yordamida bo'simni avtomatik rostlash sistemasining turg'unligini aniqlang.

Rostlash obyektining uzatish funksiyasi:

$$W_0(P) = \frac{K_{ob}}{(T_1 P + 1)(T_2 P + 1)},$$

Bu yerda: $K_{ob} = 1,65$, $T_1 = 10$ s, $T_2 = 5$ s.

Ijro etuvchi mexanizmni (klapanni) uzatish funksiyasi

$$W_{kl}(P) = \frac{K_{kl}}{T_{kl} P + 1}$$

Bu yerda: $K_{kl} = 1,5$; $T_{kl} = 2$ s.

Rostlagichni kuchaytirish koefitsiyenti $K_p = 4$.

Ochiq sistemaning uzatish funksiyasini quyidagicha ifoda-laymiz:

$$W(P) = \frac{K_{ob} K_p K_{kl}}{(T_1 P + 1)(T_2 P + 1)(T_{kl} P + 1)} = \frac{10}{(2p+1)(5p+1)(10p+1)}$$

Yopiq sistemaning xarakteristik tenglamasi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$a_0 p^3 + a_1 p^2 + a_2 p + a_3 = 0$$

Bu yerda: $a_0 = T_1, T_2, T_{kl} = 100$; $a_1 = T_{kl} \cdot T_1 + T_{kl} \cdot T_2 + T_1 \cdot T_2 = 80$;
 $a_2 = T_1 + T_2 + T_{kl} = 17$; $a_3 = K + 1 = 11$;

$p = j\omega$ ni tenglamaga qo‘yib Mixaylov godografi tenglamasini topamiz.

$$D(\omega) = U(\omega) + jV\omega$$

Bu yerda: $U(\omega) = a_3 - a_1\omega^2 = 11 - 80\omega^2$

$$V(\omega) = \omega(a_2 - a_0\omega^2) = \omega(17 - 100\omega^2)$$

$j^2 = -1, j^3 = -j$ ekanligini hisobga olgan holda ω ga 0 dan ∞ gacha qiymatlar berib, $U(\omega)$ va $V(\omega)$ qiymatlarini hisoblab jadvalga yozamiz.

$\omega, 1/s$	0	0,05	0,1	0,2	0,37	0,413	0,5	1
$U(\omega)$	11	10,8	10,2	7,8	0	-2,4	-9	-69
$V(\omega)$	0	0,85	1,6	2,6	1,25	0	-4	-83

hisoblangan qiymatlar asosida Mixaylov egri chizig‘ini quramiz (4.6-rasm). $\omega = 0 \div \infty$ o‘zgarganda vektor $D(j\omega)$ yakuniy burilish burchagi $\varphi = n \frac{\pi}{2} = 3 \frac{\pi}{2}$ ($n=3$ – sistemaning

tartib nomeri) teng va egri chiziq kriteriya talabiga javob beradi, demak, ko‘rilgan sistema turg‘un.

2-misol. Naykvist kriteriysiga asosan yopiq avtomatik sistemaning turg‘unligini aniqlang.


Ochiq sistemaning uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(p) = \frac{K}{(Tp + 1)}$$

Bu yerda: $K=2$, $T=0,02$ s. Chastotali uzatish funksiyasini yozamiz.

$$W(j\omega) = \frac{2}{0.02j\omega + 1}$$

$W(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega)$ ekanligini hisobga olib, uzatish funksiyasining haqiqiy va mavhum qismlarga ajratamiz. Buning uchun surat va maxrajni ($0.2 j\omega - 1$) ga ko‘paytiramiz.



4.6-rasm. Bosimni avtomatik rostlash sistemasi uchun
Mixaylov egri chizig‘i.

$$\begin{aligned} W(j\omega) &= \frac{2}{0.02j\omega + 1} = \frac{2(0.02j\omega - 1)}{(0.02j\omega + 1)(0.02j\omega - 1)} = \frac{0.04j\omega - 2}{-(0.0004\omega^2 + 1)} = \\ &= \frac{2}{(0.0004\omega^2 + 1)} - j \frac{0.04\omega}{(0.0004\omega^2 + 1)} \end{aligned}$$


$$U(\omega) = \frac{2}{(0.0004\omega^2 + 1)}$$

$$V(\omega) = -\frac{0.04\omega}{(0.0004\omega^2 + 1)}$$

Chastota ω ga $0 \div \infty$ gacha qiymatlar berib, $U(\omega)$ va $V(\omega)$ ni hisoblab jadvalga yozamiz.

$\omega, 1/\text{s}$	0	1	10	100	...	∞
$U(\omega)$	2	1,99	1,92	0,4	0
$V(\omega)$	0	-0,04	-0,4	-0,8	0

$U(\omega)$ va $V(\omega)$ qiymatlarini kompleks tekislikda qo‘yib a.f.ch.x. ni quramiz.



4.7-rasm. Birinchi darajali nodavriy zvenoning a.f.ch.x.si.

Xulosa: ochiq sistemaning a.f.ch.x.si kompleks tekislikda $(-1, 0j)$ nuqtani bosib o‘tmadi. Demak, yopiq sistema turg‘un hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Turg‘un va noturg‘un sistemalarining farqi nimada?
2. Algebraik turg‘unlik kriteriyisini tushuntiring.
3. Chastotali turg‘umlik kriteriyisining qaysi turlarini bilasiz?
4. Rostlash sifatini xarakterlaydigan kattaliklarni aytинг.
5. Nechta guruh sifat kriteriyilari bor?

V BOB. AVTOMATIK ROSTLASHNING TEXNIK QURILMALARI

5.1. AVTOMATIK ROSTLAGICHLAR

Rostlash obyektining xossalari hisobga olib avtomatik rostlagich tanlanadi. Turli-tuman avtomatik rostlagichlar har xil belgilarga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1. Rostlanayotgan kattalikning turiga ko‘ra *rostlagichlar individual, maxsus va universal turlariga* bo‘linadi.

Individual rostlagichlar konkret obyektda aniq kattalikni rostlashda ishlatalib, texnologik jihoz bilan konstruksion bog‘liq bo‘ladi. Masalan, elektr qozonlarda bosim rostlagichi, elektr qaynatgichda sath rostlagichi va boshqalar.

Maxsus rostlagich turli obyektlarda bir xil kattalikni rostlaydi. Masalan, temperatura rostlagichi, bosim rostlagichi, sath roslagichlar va boshqalar. Biroq rostlagichlar ko‘pincha har xil kattaliklarni har xil obyektlarda rostlash uchun ishlatalishi mumkin. Bunday rostlagichlarga *universal rostlagichlar* deyiladi.

2. Rostlash harakatining usuliga ko‘ra avtomatik rostlagichlar bilvosita harakatlari va bevosita harakatlari bo‘ladi. Bevosita harakatlari rostlagich bilan ishlaydigan ARS larda rostlash organining harakati uchun kerakli energiya rostlanayotgan kattalikning o‘zgarishiga mos holda sezgir elementda hosil bo‘ladi. Bu rostlagichlarda qo‘srimcha energiya ishlatalmasligi ularning afzalligi hisoblanadi. Biroq bevosita harakatlari rostlagichlarning ishlatalishi cheklangan. Bunga sabab yuqori bosim va temperaturada ishlaydigan sezgir element hamda rostlash organlarining kattaligidir.

Bu rostlagichlar oddiy konstruksiyasiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Bevosita harakatli rostlagichlarga bevosita harakatli sarf va bosim rostlagichlari misol bo‘la oladi [11-a, b rasm, I bobga qarang].

Bilvosita harakatli rostlagichlarda tashqaridan qo‘shimcha energiya manbayi talab etiladi. Ishlatiladigan energiyaning turiga ko‘ra rostlagichlar *elektrik*, *pnevmatik* va *gidravlik* tur-larga bo‘linadi. Bevosita harakatli rostlagichlar obyekt yonida o‘rnataladi. Bilvosita harakatli rostlagichlar esa alohida boshqarish punktlarida chiqarib o‘rnataladi.

Elektrik rostlagichlar


Elektrik rostlagichlar konstruksiyasiga ko‘ra *elektromekanik*, *elektrik* va *elektron* turlariga bo‘linadi.

Elektromexanik rostlagichlarda o‘lchash qurilmasi va taqqoslash elementi mexanik, boshqarish elementi va ijro etuvchi mexanizmlar elektrik bo‘ladi.

Elektrik rostlagichlarda sezgir elementdan elektrik signal berilib, chiqishida hosil bo‘lgan boshqaruvchi signal elektrik ijro etuvchi mexanizmlarga beriladi. Elektron rostlagichlarda signallarni kuchaytirish uchun lampali va yarim o‘tkazgichli elektron sxemalar qo‘llaniladi.

Ko‘pgina nazorat o‘lchov asboblari qo‘shimcha elektrik rostlovchi qurilmalar bilan jihozlanib, texnologik kattaliklarni nazorat qilish, ogohlantirish va rostlash uchun ishlatiladi. Jumladan, kengayish termometrlari (TR-200), manometrik termometrlar (ETK) va elektrik manometrlar (EKM), avtomatik muvozanat ko‘priklar millivoltmetrlar hamda avtomatik potensiometrlar bu asboblarga misol bo‘ladi.

5.1-rasmda avtomatik potensiometr va muvozanat ko‘priklar jihozlangan elektrik pozitsion rostlovchi qurilma-ning sxemasi ko‘rsatilgan.



5.1-rasm. Elektrik rostlovchi qurilmaning prinsipial sxemasi.

Elektrik pozitsionni rostlovchi qurilma asbobning reversiv dvigateli bilan bog'langan topshiriq beruvchi disklar D_1 , D_2 boshqariladigan K_1 va K_2 kontakt guruhlardan tuzilgan.

Dvigatel rotorining harakatiga mos disklar ham aylanib ularning yuzasida kontakt guruhlarning roliklari sirg'aladi.

Rostlanayotgan kattalikning minimal va maksimal berilgan qiymatiga muvofiq rolik diskning uyig'iga tushadi va uning kontaktlari ularni boshqaruvchi R_{\min} yoki R_{\max} relelarning g'altak zanjirini tutashtiradi va natijada simobli o'chirg'ich

B₁ yoki B₂ ham tutashadi va 1-4 yoki 3-4 zanjir bo'yicha ijro etuvchi mexanizm ishga tushadi hamda rostlanayotgan obyekta ketayotgan rostlovchi kattalikni o'zgartiradi.

Pnevmatik rostlagichlar

Pnevmatik rostlagichlar temperatura, bosim sarf, sath va boshqa kattaliklarni rostlash uchun ishlatiladi. Bu rostlagichlarda ishchi muhit sifatida 137 kPa bosim ostida berilayotgan tozalangan, siqilgan havo ishlatiladi.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashirishda pnevmatik rostlagichlarning *asbobli, agregatli (blokli)* va *elementli* turlari ishlatiladi.

Asbobli pnevmatik rostlagichlar har xil o'lhash asboblari korpusiga o'rnatiladi. Bu rostlagichlar alohida kattaliklarni (bosim, sarf temperatura) stabillab ko'chishni kompensatsiyalash prinsipi asosida ishlaydi. Biroq bu turdag'i pnevmatik rostlagichlarni bir-biriga bog'liq murakkab avtomatik sistemalarda ishlatish imkoniyati yo'qligi uchun qo'llanish sohasi chegaralangan.


Agregatli (blokli) rostlagichlar pnevmatik aggregatli universal sistemalar (AUS) asosida yasaladi. Ular kichik gabaritli bir-birini o'rnnini bosadigan bir yoki bir nechta funksiyani bajaradigan universal bloklardan tuzilgan. Bunday pnevmatik rostlagichlar yordamida murakkab ko'p bog'liqli konturli avtomatik rostlash sistemalarini yaratishga imkon tug'ildi.

Hozirgi zamон avtomatik rostlash sistemalarida o'ta muhim boshqarishlar avtomatik optimallash orqali amalga oshirish talab qilayapti. Shu maqsadda *elementli pnevmatik rostlagichlar* yaratildi. Bu rostlagichlar universal pnevmatik sanoat elementlar sistemasi (USEPPA) asosida yaratiladi. Sistema har biri alohida aniq funksiyani bajaradigan elementlar to'plamidan iborat bo'ladi, USEPPA elementlari

kirish va chiqish signallari 19,6-98 kPa o‘zgaradigan havo bosimi bo‘lib, pnevmatik manba bosimi esa 137 kPa ga tengdir.

USEPPA elementlari asosida yig‘ilgan «START» sistemasiga PR 2.8-proporsional integral rostlagich; PR 3.31 – proporsional integral rostlagich; PR 3.33 – proporsional integral nisbat rostlagichi va boshqa funksional bloklar, elementlar kiradi. (5.2-rasm) da PR 2.8 – proporsional-integral rostlagichning prinsipial sxemasi keltirilgan.

PR 2.8 – PI rostlagich P2 ES 3 turidagi I va II elementdan, P23 D turidagi III elementdan, P2 ES 2 turidagi IV elementdan, chiqish signali quvvatini kuchaytirgich V va VI – o‘chiruvchi reledan tuzilgan. Avtomatik rostlash sistemasining o‘lchovi o‘zgartirgichidan kelayotgan P_n bosim I elementning G kamerasiga, topshiriq bergichdan kelayotgan P_3 bosim shu elementning V kamerasiga beriladi. Undan tashqari II elementning kirishiga P 23 D elementdan o‘zgarmas bosim P_n (D kamerasaga va I element chiqishidan P_1 bosim B kamerasaga beriladi.



5.2-rasm. PR2.8 rostlagichning prinsipial sxemasi.


I element chiqishidan P_1 signal IV element kirishiga berilib kuchaytirgich V chiqishidan kelayotgan P_{chiq} signal bilan qo'shiladi. IV element chiqish signali II elementning manfiy B kamerasiga, o'zgarmas P_n bosim III element chiqishidan II elementning musbat D kamerasiga beriladi. Ular o'tasidagi signal ayirmasi V elementda kuchaytirilib, VI o'chiruvchi rele orqali rostlagichning chiqishiga va IV elementning ikkinchi kirishiga keladi. PR 2. 8 rostlagichning proporsionallik chegarasi rostlovchi drossel D_p ochilish darajasini rostlash orqali erishiladi. Tuzatish darajasi – 2 dan 3000 % gacha.

Gidravlik rostlagichlar

Gidravlik rostlagichlarning ishslash prinsipi rostlagich komplektiga kiradigan maxsus nasos qurilmasidan berilayotgan suyuqlik bosimi energiyasidan foydalanishga asoslangan. Ishchi suyuqligi sifatida turbin transformator mineralli yog'i, maxsus aralashmalar va korroziyani sekinlashtiradigan moddalar qo'shilgan suv ishlatiladi. Gidravlik rostlagichlar bosim siyraklanishi, bosimlar farqi, sarf, sath hamda ikki bosim yoki sarf muvofiqligini rostlash uchun ishlatiladi. 5.3-rasmda Integral qonunda ishlaydigan gidravlik rostlagich keltirilgan.

Tomchisimon trubka 1 soploli nasadka bilan O'o'q atrofida vertikal tekislikda 4 dan 4' tayanchga aylanishi mumkin. Trubka 1 ichiga $7,84 \cdot 10^5 \div 9,8 \cdot 10^3$ Pa bosim ostida soplordan $25 \div 30$ m/s tezlikda chiqadigan yog' beriladi. Yog' elektr yuritgichli nasos 9 yordamida maxsus idish 8 dan beriladi. Tomchisimon trubkaga bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan ikki kuch ta'sir qiladi. Birinchi kuch sarf o'chagich – difmanometr 5 ning sezgir elementidan ikkinchi kuch esa topshiriq bergich 2 dan ta'sir qiladi. Agar rostlanayotgan kattalikning berilgan va hozirgi qiymatlari teng bo'lsa, tomchisimon trubkaga ta'sir

qiladigan kuchlar ham teng bo‘lib, o‘rta holatda turadi. Unda soplidan kuchli oqim bilan keladigan yog‘ soploli plita 3 ga uriladi va rezervuar 8 ga oqib chiqadi. U yerdan esa nasos 9 orqali yana trubka 1 ga qaytariladi.




5.3-rasm. Gidravlik rostlagichning sxemasi.

3. Rostlash ta’sirining turiga ko‘ra avtomatik rostlagichlar *uzluksiz* va *uzlukli* harakatli turlarga bo‘linadi.

Uzluksiz harakatli rostlagichlarda rostlanayotgan kattalikning uzluksiz o‘zgarishi bilan rostlovchi organ ham uzluksiz harakatlanadi.

Uzlukli harakatli rostlagichlarda esa rostlovchi organ rostlanayotgan kattalik o‘zgarib o‘zining muayyan bir aniq qiymatiga yetganidagina harakatlana boshlaydi.

Rostlash qonuniga ko‘ra uzluksiz harakatli rostlagichlar proporsional (P-rostlagich), integral (I-rostlagich) izodrom (PI-rostlagich), proporsional-differensial (PD-rostlagich), proporsional-integral-differensial (PID-rostlagich) turlariga bo‘linadi.



1. Proporsional rostlash qonuni (P-qonun); P-rostlagichlar

Oldingi bobda tushuntirganimizdek ARS sining sxemasida, rostlagichning kirish kattaligi bo‘lib X_K , chiqish kattaligi – X_{ch} bo‘lib hisoblanadi. Rostlagichning chiqish kattaligi bilan kirish kattaligi orasidagi bog‘lanishga rostlash qonuni deb ataladi.

$$X_{ch}(t) = f(X_K(t)) \quad (1)$$

$$\mu(t) = f[\Delta X(t)] \quad (2)$$

Proporsional rostlash qonuni quyidagicha yoziladi.

$$\mu = k\Delta X \quad (3)$$

Bu yerda:

k – proporsionallik koefitsiyenti, bu rostlagichning to‘g‘rilash koefitsiyenti bo‘lib hisoblanadi.

P – rostlagichlarda rostlash ta’siri μ rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishiga ΔX ga proporsionaldir.

P – rostlagichni uzatish funksiyasi quyidagicha topiladi:


$$\mu(P) = K\Delta X(P) \quad (4)$$

$$W(P) = \frac{\mu(P)}{\Delta X(P)} \quad (5)$$


5.4-rasmida P – rostlagich o‘tish jarayonining egri chizig‘i ko‘rsatilgan.

Misol tariqasida P – rostlash qonunida ishlaydigan bevosita harakatli bosim rostlagichning ishi bilan tanishamiz (5.5-rasm).

Rostlanayotgan kattalik (P) o‘lchash qurilmasining K kamerasiga beriladi. Rostlagichni o‘lchash qurilmasi



5.4-rasm. P-rostlagich o'tish jarayonining egri chizig'i.



5.5-rasm. Proporsional rostlagichning prinsipial sxemasi.

membrana prujinali mexanizm bo'lib, elastik membrana 2, prujina 3 va qattiq markaz 1 dan tuzilgan.

Vertikal shtok 5 membrana va qattiq markaz 6 ni rostlash organi bilan bog'laydi. Bu rostlagichjni topshiriq bergichi bo'lib, uni aylantirish bilan rostlanayotgan bosimni berilgan qiymati beriladi.

Rostlagichning membranasiga ikki qarama-qarshi yonalgan kuchlar ta'sir qiladi. Birinchi P bosim bilan hosil bo'ladigan kuch 7 trubka orqali membrana usti kamerasiga

beriladi. Ikkinchisi esa prujina 3 ning deformatsiyasi orqali hosil bo‘ladi.

Agar rostlanayotgan bosimning qiymati berilgan qiymatga teng bo‘lsa, membranaga ta’sir qiladigan kuchlar tenglashadi va rostlash organi muvozanatda turadi.

Gaz sarfining o‘zgarishi sistemaga g‘alayonlanish sifatida berilsin. U holda gazning kelish sarfi katta bo‘lishi natijasida bosim P ko‘payadi. Bu esa o‘z navbatida membrananing ustki kamerasiga kelayotgan kuchni o‘zgartiradi, natijada membrananing qattiq markazi, shtok va rostlash organi pastga qarab harakatlanadi. Prujina qisilib, uning qarshi harakati ku-chayadi va gaz kelishi ko‘payadi hamda bosim P ning oshishi to‘xtaydi. Qachonki prujinaning qarshi ta’siri bosim kuchiga tenglashsa, yangi muvozanat holat hosil bo‘lib, qo‘zg‘aluvchi qismlar harakati to‘xtaydi.

Proporsional rostlagichning tenglamasini keltirib chiqaramiz.

$f_1 - P$ bosimning ta’sir kuchi.

$$f_1 = P \cdot S_M; \quad (6)$$

Bu yerda: S_M – membrananing yuzasi

f_2 – prujinaning qarshi ta’sir kuchi.

$$f_2 = c \Delta l \quad (7)$$

Bu yerda: S – prujinaning qattqlik koeffitsiyenti;

Δl – prujinaning deformatsiyasi;

Muvozanat holatda

$$f_1 = f_2 \quad (8)$$

yoki

$$P S_M = C \Delta l \quad (9)$$

Bu yerdan,

$$\Delta P = \left(\frac{C}{S_M} \right) \Delta l \quad (10)$$

$\frac{C}{S_M}$ – proporsionallik chegarasi.

P-rostlagichlarda statik xatoning mavjudligi ularning kamchiligi bo'lsa, tez harakati, turg'unligi va ishlatalishining oddiyligi, afzalligi hisoblanadi.

2. Integral roslash qonuni. I – rostlagichlar

Bu rostlagichlarda rostlanayotgan kattalikni o'zgarish tezligi bilan roslash ta'siri o'rtasida bog'lanish mavjud:

I – roslash qonuni quyidagicha yoziladi:


$$\mu(t) = \frac{1}{T_i} \int_0^1 \Delta X(t) dt \quad (11)$$

Bu yerdan: T_i – integrallash vaqt yoki roslash organining bir chetki holatidan ikkinchi chetki holatiga o'tishigacha bo'lgan vaqt, rostlagichning to'g'rilash koefitsiyenti bo'lib hisoblanadi,

$$\mu(P) = \frac{1}{T_i P} \Delta X(P) \quad (12)$$

$$W(P) = \frac{\mu(P)}{\Delta K(P)} = \frac{1}{T_i P} \quad (13)$$


I – rostlagichdagi o'tish jarayonlarining egri chizig'i 5.6-rasmda ko'rsatilgan.



5.6-rasm. I – rostlagichdagi o’tish jarayonining egri chizig‘i.

I-rostlagichlarda ΔX statik xatoning yo‘qligi, uning afzalligi bo‘lsa, harakatining sekinligi afzalligidir.

Integral bosim rostlagichning (5.7-rasm) ish jarayonini ko‘rib chiqamiz.



5.7-rasm. Integral rostlagichning sxemasi.

Rostlagichning o‘lchash qurilmasi silfon 1 dan iborat bo‘lib, u tayanch 2, richag 3 va tayanch 4 yordamida porshen 5 va beshta teshikli zolotnik bilan bog‘langan. Porshenli uzatma 11 porshen 8 shtok 9 rostlash organi 10 bilan bog‘langan.

Rostlash organi gaz trubasida joylashgan. Rostlanayotgan bosimning oshishi natijasida muvozanat holat buzilib, silfon qisiladi va tayanch 2 orqali richag OBD 3 ni soat strelkasi bo'yicha – qo'zg'almas o'q 0 atrofida aylantiradi. Tayanch 4 va porshen 5 ham pastga tushadi. Natijada zolotnikni uzatma bilan bog'lovchi teshikcha ochiladi. 8 porshen tagidagi yog'ning bosimi, ustidagi bosimga nisbatan katta bo'ladi va rostlash organi porshen bilan birgalikda yuqoriga harakatlanib obyektdan chiqadigan gazning sarfini oshiradi. Qachonki rostlanadigan bosim qiymatga tenglashsa, silfon dastlabki holatni egallaydi va ijro etuvchi mexanizmni rostlash organi bilan bog'lanuvchi zolotnik o'rtasidagi teshikcha yopilib rostlagich harakati to'xtaydi. Agar rostlanayotgan kattalik kamaysa, rostlagich teskari tomonga harakatlanadi.

Tuzatish koeffitsiyenti T_i drossel 7 ni ochish orqali o'zgartiladi.

3. Proporsional-integral rostlash qonuni. Izodrom rostlagichlar

Bu rostlagichlarni rostlash ta'siri rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatdan chetga chiqishiga va bu qiymatni integraliga proporsionaldir. Rostlash qonuni quyidagicha yoziladi:

$$\mu(t) = K \Delta X(t) + \frac{1}{T_i} \int_0^t \Delta X(t) dt \quad (14)$$


Bu yerda: K , T_i – rostlagichni tuzatish koeffitsiyentlari. PI – rostlagichning uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(P) = K + \frac{K}{T_i P} \quad (15)$$


O'tish jarayonining egrisi chizig'i esa 5.8-rasmda ko'rsatilgan.

Izodromli rostlagichlar o'zida proporsional rostlagichlarning tez harakatlanish xususiyati va integral rostlagichlarning xatosiz ishlash xususiyatini mujassamlashtirganligi sababli sanoatda keng qo'llaniladi.

Izodrom rostlagichli bosimni avtomatik rostlash sistemasining ishlash prinsipini (5.9-rasm) ko'rib chiqamiz.



5.8-rasm. PI-rostlagich o'tish jarayonining egrisi chizig'i.



5.9-rasm. Proporsional-integral rostlagichning prinsipial sxemasi.

PI – rostlagichlarda rostlash rostlanayotgan kattaliklarning berilgan qiymatidan chetga chiqishi va shu chetga chiqish

integraliga proporsional olib boriladi. Natijada rostlash jaryonining dastlabki vaqtida statistik sistemalarga xos bo‘lgan yetarli tezkorlik va statik xato yo‘qotilishiga erishiladi.

Sxemadagi proporsional – integral bosim rostlagichida ijro etuvchi mexanizm 7 ning porsheni 6 va O nuqta o‘rtasida aloqa tuzilgan. OBD richag va ijro etuvchi mexanizm shtoki 8 orasida yog‘ bilan to‘ldirilgan va O nuqta bilan bog‘langan silindr 9 o‘rnatilgan. Silindrda o‘rnatilgan porshen 10 ijro etuvchi mexanizm porsheni bilan bog‘lanadi. Porshen 10 usti va ostidagi kameralar bir-biri bilan drosselli trubkalar yordamida bog‘langan. O nuqtaga boshqa tomondan prujina 12 bog‘lanib, ikkinchi tomoni qo‘zg‘almasdir. Silindr, porshen, drossel va prujina izodrom mexanizmni tashkil etadi. Rostlanayotgan bosimni pog‘onali oshishi bilan sistemaning muvozanat holati buziladi. Unda silfon 1 ning qo‘zg‘aluvchi qismi, zolotnik 4 porshen 3 pastga harakatlanadi. Ijro etuvchi mexanizmning porsheni rostlovchi organ 5 ni ochib yuqoriga ko‘taradi. Bir vaqtning o‘zida silindr 9 da porshen 10 yuqori ko‘tarilib, prujina 12 qisiladi. Silindrda yog‘ bo‘lganligi sababli ijro etuvchi mexanizm porshen 10 ni silindr ichida kichik tezlik bilan harakatlantiradi. Yog‘ qisilmaydigan modda bo‘lganligi sababli, drossel 11 yog‘ni bir kameradan ikkinchisiga o‘tishiga xalaqit beradi, porshen 10 silindr bilan bir butun sifatida yuqoriga ko‘tariladi. O nuqta ham yuqoriga ko‘tarilib, richag 2 (OBD) D nuqta atrofida soat strelkasi bo‘yicha burilib, porshen 3 zolotnik 4 ni o‘rta holatga keltiradi. Rostlash organining zatvori va O nuqta yangi holatga o‘tadi. Rostlanayotgan bosim boshlang‘ich qiymatidan farqli boshqa qiymatga ega bo‘ladi. Shu vaqtgacha rostlagichni proporsional qismi ishlagan edi. Keyin, prujina 12 cho‘ziladi, porshen 10 ustidagi kamerada yog‘ning bosimi oshadi va yog‘ drossel 11 orqali yuqori kameradan pastki kameraga o‘tadi. Shunda porshen 10 qo‘zg‘almasdan silindr

9 porshenga nisbatan pastga harakatlanadi. Porshen 10 va O nuqtaning pastga harakati tufayli zolotnik porsheni zolotnikni ijro etuvchi mexanizm bilan bog‘laydigan teshikchani ochadi va porshen asta-sekin yuqoriga ko‘tarila boshlaydi va prujina 12 to‘liq kengayadi. Bu holat esa rostlanayotgan bosim birlamchi qiymatiga yetganda ro‘y beradi. Shunday qilib, rostlanayotgan bosim berilgan qiymatiga yetguncha rostlovchi organ harakatlanadi. Demak, izodrom rostlagichning integral qismi orqali ΔX nolga yetgunga qadar rostlash jarayoni davom etadi.

4. Proporsional - integral - differensial rostlash qonuni (PID) rostlagichlar

Bu qonunda rostlagichning kirish va chiqish signallari orasidagi bog‘lanish: proporsional, integral va differensial qismlardan iborat.

$$\mu(t) = K\Delta X(t) + \frac{K}{T_i} \int_0^t \Delta X(t) dt + KT_d \frac{d\Delta X}{dt} \quad (16)$$

Bu yerda: $KT_d \frac{d\Delta X}{dt}$ – differensial rostlash qonuni.

PID rostlagichning uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(P) = K + \frac{K}{T_i P} + T_d P \quad (17)$$

Nazorat savollari

1. Avtomatik rostlagich deb qanday qurilmaga aytildi?
2. Nechta rostlash qonunlari mavjud?
3. Elektrik, pnevmatik va gidravlik rostlagichlarning bir-biridan farqi nimada?
4. Avtomatik rostlagichlarning tuzatish koeffitsiyentlari to‘g‘risida nimalar bilasiz?

VI BOB. IJRO ETUVCHI QURILMALAR

6.1. IJRO ETUVCHI QURILMALAR

Ijro etuvchi qurilmalar har qanday avtomatik rostlash sistemasining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanib, 2 qismdan: *ijro etuvchi mexanizm (uzatma)* va *rostlovchi organdan tulzilgan*.

Ijro etuvchi mexanizm rostlovchi qurilmadan kelayotgan signalni rostlovchi organni proporsional harakatiga aylantiradi. *Rostlovchi organ* harakati bilan modda va energiyani kelish hamda sarfini o‘zgartira borib, bevosita rostlanuvchi obyektga ta’sir qiladi.

Ijro etuvchi mexanizm rostlovchi organning uzatmasi bo‘lib hisoblanib, uning xossasi o‘tish jarayonining sifatiga ta’sir qiladi.

Ijro etuvchi mexanizmlar servodvigatelli yoki servomotorli bo‘ladi. Ishlatiladigan energiya manbayining turiga ko‘ra ijro etuvchi mexanizmlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Elektrik ijro etuvchi mexanizmlar.
2. Pnevmatik ijro etuvchi mexanizmlar.
3. Gidravlik ijro etuvchi mexanizmlar.

6.2. ELEKTRIK IJRO ETUVCHI MEXANIZMLAR

Ishlash prinsipiغا ko‘ra elektrik ijro etuvchi mexanizmlar *elektromagnitli* va *elektrodvigatelli* turlarga bo‘linadi. Elektromagnitli ijro etuvchi mexanizmlar har xil rostlovchi organlar, ya’ni klapanlar, ventillar va zolotniklarni boshqarish uchun ishlatiladi.

Ijro etuvchi mexanizmlarning asosiy mexanik ko'rsatichlariga kuch, tezlik chiqish zvenosining chiziqli yoki burchakli ko'chishi, ishchi xarakteristikalar, inersionlik, ishonchlilik, massa va gabarit o'lchamlari kiradi.

Elektromagnitli ijro etuvchi mexanizmlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Uzoq magnitlanishga mo'ljallangan elektromagnit g'altakli ijro etuvchi mexanizmlar.

2. Qisqa magnitlanishga mo'ljallangan elektromagnit g'altakli ijro etuvchi mexanizmlar.

Birinchi guruh elektromagnitli ijro etuvchi mexanizmlarda ventilni g'altakka kuchlanish berilishi bilan rostlovchi organ ochilib-yopilib, elektromagnitlarning og'irlik kuchi yoki prujina ta'sirida ishdan to'xtaydi.

Ikkinci guruh elektromagnitli ijro etuvchi mexanizmlar tayanchli elektromagnit va ilgakli elektromagnitdan iboratdir.

Elektromagnitli solenoid ijrochi mexanizmlar asosan sovutish texnikasida keng qo'llaniladi. Bu ijrochi mexanizmlarni boshqarish usuli elektromagnit g'altagidan tok o'tishi bilan klapanni ochilish va yopilishiga asoslangan. Ijrochi mexanizmlar suyuqlik va gazlar oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Ishlash prinsipiiga asosan elektromagnitli ventillar *bevosita*, *bilvosita harakatli* turlariga bo'linadi.

Bevosita harakatli ijrochi mexanizmlarda klapan faqat elektromagnit kuchi ta'sirida harakatlanadi.

Bilvosita harakatli ijrochi mexanizmlarda klapan ochilib-yopilishida suyuqlik va gazlar energiyasi ishlataladi.

Kombinatsiyalashgan harakatli ijrochi mexanizmlarda esa elektromagnit kuchi va ishchi muhit bosimi birgalikda ishlataladi.

6.1-rasmda *bevosita harakatli elektromagnitli ijrochi mexanizmning sxemasi* ko'rsatilgan.

O'zak 2, klapan 1 bilan trubka 6 ning ichiga joylashgan bo'lib, nomagnit po'latdan yasalgan. Unga elektromagnit g'altagi kiygizilib, qobiq 5 bilan o'rالган.

Elektromagnit g'altagiga kuchlanish berilganda, suyuqlik bosimi va prujina 3 ning ta'sir kuchlarini yengib, o'zakni yuqoriga harakatlantirishi natijasida klapan 1 o'rindig'idan ajralib suyuqlikning yo'lini ochadi. G'altakdan kuchlanish olinsa, prujina klapanni o'rindiqqa o'tqazadi. Bu turdag'i jirochi mexanizmlar 6–10 mm diametrda ishlab chiqariladi.


Elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlarda ijro etuvchi, element vazifasida elektrodvigatellar ishlatiladi. Elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bir oborotli elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlar (EIM).
2. Ko'p oborotli EIM.
3. To'g'ri harakatli EIM.

Bir oborotli ijro etuvchi mexanizmlarda aylanma harakatlanadigan armatura bilan bog'langan zatvorning o'tish yuzasi katta bo'ladi.


To'g'ri harakatli ijro etuvchi mexanizmlarda esa, armatura bilan bog'langan, kichik va o'rta o'tish yuzasiga ega zatvor bilan tutashgan. Elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlar o'zgarmas va o'zgaruvchan tezlikli turlariga bo'linadi.

O'zgarmas tezlikli ijro etuvchi mexanizmlar P-rostlagichlar, PI-rostlagichlar va releli rostlagichlar bilan birga ishlaydi.



6.1-rasm. Bevosita harakatli elektromagnit ijrochi mexanizmning principial sxemasi.

O‘zgaruvchan tezlikli ijro etuvchi mexanizmlar P, -I, -PI, -PID rostlagichlar bilan birga ishlaydi. Pozitsiyali elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlarning umumiyligi ko‘rinishi va elektrik sxemasi 6.2-rasmda ko‘rsatilgan.



6.2-rasm. Elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizm
a) umumiyligi ko‘rinishi; b) elektrik sxemasi.

Ijro etuvchi mexanizm flansli elektrodvigatel 3, chervyakli reduktor 2, elektromagnitli tormoz 4, o‘chirgichli korpus 5, reduktorning chiqish vali, rostlovchi organ 1 bilan bog‘langan. Elektrodvigateli ishga tushirib rostlash organini ochish va yopish amalga oshiriladi. Elektrodvigateli ishga tushirish esa, rostlagich relelarini 1RB va 2RB kontaktlari orqali olib boriladi. Agar 1RB kontakt yopilsa, reversiv magnit qo‘shgichni V cho‘lg‘ami orqali tok oqadi. Natijada magnit qo‘shgichning asosiy kontaktlari V0 elektrodvigatel D ni manbagaga ulaydi. Magnitli qo‘shgichni blok-kontakti V1 rostlagichni 1RB kontaktini uzadi, lekin zanjirda tok qoladi. Elektrodvigatel rostlash organini chetki holatiga yetganda, KV0 o‘chirgich kontaktini 1 holattan 2 holatga o‘tkazadi, natijada magnitli qo‘shgichda tok o‘tishi to‘xtaydi. Bu yerda asosan kontaktlar V0 ajraladi, dvigatel to‘xtaydi, signal lampalari L0 yonib, rostlash organining to‘liq ochiqligi to‘g‘risida xabar beradi.

Rostlagichning 2RB kontakti qo'shilishi bilan reversiv magnit qo'shgichni N cho'lg'amida tok oqadi, N0 asosiy kontaktlari qo'shiladi va elektrodvigatelning rotori teskari tomonga aylanib, rostlash organi yopila boshlaydi. Rostlash organi to'liq yopilsa KV3 o'chirg'ichning kontakti 1-holatdan 2-holatga o'tib, magnitli qo'shgichning cho'lg'ami ajratiladi va dvigatel to'xtaydi. Lampa L3 ning yonishida rostlash organini to'liq yopiq holatidan darak beradi.

6.3. PNEVMATIK IJRO ETUVCHI MEXANIZMLAR


Pnevmatik ijro etuvchi mexanizmlar pnevmatik rostlagichlar bilan birga ishlab, *membranalı* va *porshenli* turlariga bo'linadi.

Membranalı ijro etuvchi mexanizm – bu membranalı bo'shliqdagi ishchi muhitning bosimi ko'chirma kuchni bir tomonga yo'naltiradigan ijro etuvchi mexanizmdir.

6.3-rasmda bevosita harakatli membrana – prujinali ijro etuvchi mexanizmni prinsipial sxemasi ko'rsatilgan.

Mexanizm elastik membrana 4 dan tashkil topgan bo'lib, yuqori va pastki qopqoqlar 2, 6 o'rtaida joylashgan.

Membrana ostida uning qattiq markazini tashkil etuvchi metall disk 3 joylashgan. Disk 3 silindrik prujina 8 tayanadigan stakan 5 bilan qotiriladi. Prujinaning pastki uchi sharikli podshipnik bilan tayanch 9 ga ta'sir qilib, gayka 14 yordamida prujina qisilishini osonlashtiradi. Stakan 5 ning markaziga 7 shtok qotirilgan. Mexanizm rostlash organining korpusiga qotirish uchun kranshteyn 11 qo'yilgan. Shtok 7 ni harakatini aniqlash uchun disk 12 va shkala 10 xizmat qiladi. Rostlovchi organni shtok bilan bog'langan qopqoq 21



6.3-rasm. Bevosita harakatli membrana prujinali ijro etuvchi mexanizmning prinsipial sxemasi.

orqali shtok 7 gayka 13 yordamida membrananing ustiga boshqaruvchi qurilma yoki rostlagichning kuchaytirgichidan siqilgan havo beriladi. Membrana ostidagi kamera atmosfera bilan bog'langan. Ijro etuvchi mexanizmida membrana ustki kamerasinga keluvchi siqilgan havo harakatga o'zgartirilib, prujina 8 qisilishi natijasida shtok 7 chiziqli harakatlanadi.

Membrana usti kamerasinga havo bo'lmasa, prujina 8 membrana 4 ni yuqori qopqoq 2 ga qisadi. Bu vaqtda shtok 7 chetki holatini egallaydi.

Agar kameradagi bosim atmosfera bosimidan katta bo'lsa, unda membrana 4 va uning qattiq markaziga ta'sir qiladigan kuch prujinani qisadi va uning teskari ta'siri qo'zg'aluvchi sistemani ta'siriga qiymat jihatdan teng bo'lunga qadar harakatlantiradi. Havoning bosimi 98 kPa bo'lsa prujinaning siqilishi maksimal bo'lib, shtok pastki chetki holatini egallaydi.

Kamerada havoning bosimi kamaysa, siqilgan prujinaning teskari ta'siri membranadagi havoning bosimidan katta bo'ladi. Prujina kengayib o'zining oxirgi uchi bilan mexanizmning qo'zg'aluvchi sistemasini muvozanat holat hosil qilgunga qadar suradi.

Bu membrana – prujinali mexanizm klapan turdag'i rostlovchi organlar bilan ishlaydi.


Porshenli ijro etuvchi mexanizmlarda porshenli bo'shliqdagi ishchi muhitning bosimi ko'chirma kuch yordamida hosil bo'ladi. Porshenli ijro etuvchi mexanizmlar boshqalardan rostlash organini katta miqdorda harakatlantira olishi bilan farq qiladi. Konstruksiyasi jihatidan porshenli ijro etuvchi mexanizmlar bir va ikki tomonlama harakatli silindrli bo'ladi.

6.4. GIDRAVLIK IJRO ETUVCHI MEXANIZMLAR

Gidravlik ijro etuvchi mexanizmlarda bosim ostidagi suyuqlik energiyasi ishlatiladi. Bu mexanizmlar gidravlik rostlagichdan kelayotgan signalni (yog'ning bosimlar farqini) rostlash organining harakatiga aylantiradi. Ular 2 xil: *to'g'ri harakat qiladigan va krivoshipli aylanma valli bo'ladi.*

6.4-rasmda krivoshipli gidravlik ijro etuvchi mexanizmning sxemasi ko'rsatilgan.

Silindr 1 ning ichida porshen 2 harakatlanadi. Porshennenning to'g'ri harakati shatun 3 va krivoship 6 orqali val 5 ni aylanma harakatiga aylantiradi. Val 5 ni oxiriga disk o'rnatilgan, diskga esa boltlar orqali richag 7 qotirilgan. Diskda bir




6.4-rasm. Gidravlik ijro etuvchi mexanizmning prinsipial sxemasi.

nechta teshikchalar richagni xohlagan holatga qo'yish va rostlash organi bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. Ijro etuvchi mexanizmning bo'shlig'iga shtutser 8 orqali havo beriladi. Probka 4 havoni chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Mexanizm 9 plita orqali qotiriladi. Porshennenning ikki tomonida bosimlar farqi kuch hosil qilib, uni harakatlantiradi, natijada richag 7 aylanib rostlash organini harakatlantiradi.


6.5. ROSTLOVCHI ORGANLAR

Rostlovchi organ – bajaruvchi organ hisoblanib, ishlab chiqarish jarayoniga o'tkazish qobiliyatining o'zgarishi orqali ta'sir qiladi. U ikki qismdan tuzilgan:

Zatvor – rostlash organining qo'zg'aluvchi qismi bo'lib, uning harakati orqali rostlash organining o'tkazish yuzasi o'zgartiriladi.



6.5-rasm.
Bir o'rindiqli
rostlovchi organ.



6.6-rasm. Ikki
o'rindiqli rostlovchi
organ.

Egar – rostlash organining qo'zg'almas qismi bo'lib, zatvor bilan birlgilikda o'tish yuzasini hosil qiladi.


Uzlukli va uzlusiz rostlash uchun asosan quyidagi rostlovchi organlar ishlatalidi:

1. Bir egarli rostlovchi organ (6.5-rasm) – o'tish xususiyatining o'zgarishi zatvor o'rindiq korpusining o'qi bo'yicha ilgarilanma harakati natijasida hosil bo'ladi. Bu rostlovchi organlar yopiq holatida oqimni to'liq yopadi.

2. Ikki egarli rostlovchi organ (6.6-rasm) – o'tish xususiyatining o'zgarishi zatvor 2 o'rindiqli korpusini o'tish o'qi bo'yicha ilgarilanma harakati natijasida hosil bo'ladi.

Katta bo'limgan hajmdagi va o'rtacha bosimdagи oqimlar uchun bir egarli klapanlar ishlatalidi.

Klapanlar bevosita harakatli va bilvosita harakatli turlarga bo'linadi. Bevosita harakatli (6.7-a rasm) klapanlarda shtokning pastga harakatlanishi natijasida o'tish yuzasi kamayadi (V3 turidagi klapan), bilvosita harakatli (6.7-b rasm) klapanda esa o'tish yuzasi ko'payadi (V0 turidagi klapan).



6.7-rasm. a) Bevosita harakatli klapan; b) Bilvosita harakatli klapan.


Klapanlar o‘rtacha (4-1600 m/s) o‘tish yuzasi 25-30 mm, kichik (0,1-4 m/s) o‘tish yuzasi 6-25 mm, va eng kichik (0,1 m/s kichik) o‘tish yuzasi 10 mm sarflarni rostlash uchun ishlatiladi.

Uch yo‘lli rostlovchi organlar membranali pnevmatik va elektrodvigatelli ijro etuvchi mexanizmlar bilan birga ishlaydi.


Uch yo‘lli rostlovchi organ (ajratuvchi, qo‘siluvchi) – ikki o‘rindiqli rostlovchi organ (6.8-rasm) bo‘lib, unda uch yo‘lni o‘tish yuzalarining nisbatini o‘zgarishi hosil bo‘ladi. Unda 3 yo‘l bor, bitta oqim 2 oqimga ajraladi yoki 2 ta oqim bitta oqimga qo‘siladi.

Shlangli rostlovchi organ o‘zining elastik material shlangdan yasalgani bilan boshqalaridan farq qilib, o‘tish yuzasining o‘zgarishi bilan sarfni o‘zgartiradi. O‘lchash muhitining turiga ko‘ra shlanglar ftoroplast 4 yoki polietilen materiallardan yasaladi (6.9-rasm). Rostlanayotgan muhitning temperaturasi 100°C gacha, bosimi 980 kPa bo‘lganda shlangli rostlovchi organlarini ishlatish tavsiya etiladi.


Diafragmali rostlovchi organlar o‘zining o‘tish xususiyatining o‘zgarishini membrana markazini o‘rindiqqa nisbatan ilgarilanma harakati natijasida hosil qilib, aggressiv suyuqliklar uchun ishlatiladi (6.10-rasm).



6.8-rasm. Uch yo‘lli rostlovchi.



6.9-rasm. Shlangli rostlovchi organ.




6.10-rasm. Diafragmali rostlovchi organ.

Diafragmali rostlovchi organning qobig‘i cho‘yandan yasalgan, ichki yuzasi kislotaga chidamli material bilan qoplangan bo‘lib, diafragmasi esa rezina yoki polietilenlardan yasaladi.

To‘siqli rostlovchi organ – ularda o‘tish xususiyatining o‘zgarishi zaslonkaning burilishi natijasida sodir bo‘ladi.

To‘siqlar boshqa rostlovchi organlarga nisbatan kichik o‘lcham va og‘irlikka ega bo‘lib, ular ochiq holatda katta bo‘limgan gidravlik qarshilik hosil qiladi.



6.11-rasm. To‘siqli rostlovchi organning sxemasi.

To‘siqning asosiy elementi (6.11-rasm) korpus 3 da joylashtirilgan o‘q 2 ga qotirilgan aylana diskdan iboratdir. Quvur va to‘siq o‘rtasidagi o‘tishning o‘zgarishi natijasida diskning burilishiga erishiladi. Tekislikda diskning joylashishi quvur o‘qiga perpendikular (burilish burchagi $\alpha=0$) bo‘lganda o‘tish yuzasi nolga teng. Diskning burilishi natijasida o‘tish yuzasi ko‘paya boshlaydi. $\alpha=90^\circ$ bo‘lganda o‘tish yuzasi maksimumga yetishadi.

Tarkibida qattiq zarrachalar mavjud bo‘lgan gazli granullangan sochiluvchan moddali, gazli va bug‘li muhitlarda to‘siqli rostlovchi organlar keng qo‘llaniladi.

Ular shartli o‘tish diametri $50 \div 1000$ mm va o‘tkazish xususiyati $20 \div 20000$ m^3/soat bo‘lgan sharoitlarda ishlaydilar.

Zadvijka (shiberlar) suyuqlik va gazli quvurlarda ishlatiladi. Suyuqliklarni rostlash uchun esa murakkab konstruksiyali va qo‘zg‘aluvchi qismli zadvijkalar ishlatiladi.

Texnologik jarayonning o‘tish xarakteri va xilma-xilligiga qarab rostlovchi klapanlar tanlanadi. Rostlovchi klapanlarni o‘rnatishda ular oldida o‘zgarmas bosim va quvurda minimal bosimni o‘zgartirmasdan saqlash talab qilinadi.

Ijro etuvchi qurilmalarni tanlashda quyidagi kattaliklar o'tkazish xususiyatiga ko'ra aniqlanadi:

- shartli o'tkazish xususiyati;
- shartli o'tish diametri;
- o'tkazish xarakteristikasining turi;
- ishchi bosim;
- klapandagi bosimlar farqining chegarasi.

Shartli o'tish xususiyati K_n deb, 1000 kg/m^3 zichlikli, 98 kPa (1 kg/sm^2) bosimlar farqiga ega to'liq ochiq rostlovchi organ orqali o'tadigan suyuqlikning nominal sarfiga (m^3/s) aytiladi. Shartli o'tish xususiyati K_n rostlovchi organning shartli o'tishi diametri D va rostlovchi organ turiga bog'liq koeffitsiyent a ga bog'liq. $K_v = \alpha D^2$;

Rostlovchi organlarni o'tish xarakteristikasi deb o'tish xususiyati bilan zatvor ko'chishi o'rtaсидаги bog'lanishga aytiladi.

$$K_v = f(S);$$

Bu yerda: S – zatvor ko'chishi, mm.

Nazorat savollari

1. Ijro etuvchi qurilmaning vazifasi nimadan iborat?
2. Bajaruvchi mexanizmlarning turlarini aytинг.
3. Rostlash organlari nima uchun ishlataladi?

VII BOB. TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISHNING FUNKSIONAL SXEMALARI

Sanoatning barcha tarmoqlari texnologik jarayonlarini avtomatlashtirishni loyihalashda funksional sxemalar asosiy texnik hujjat hisoblanadi. Bunda mashinalar va apparatlarning tuzilishi hamda o‘zaro funksional aloqalari aniqlanadi hamda boshqarish obyektining avtomatika texnik vositalari, birlamchi o‘lchov o‘zgartgichlar, o‘lchov asboblari va ijrochi mexanizmlar bilan ta‘minlangani ko‘rsatiladi.

Funksional sxemalar chizma ko‘rinishida bajarilib, unda texnik hujjatlar normativiga asosan texnologik jihozlar to‘g‘ri keladigan shartli belgilar vositasida apparatlarni o‘zaro bog‘lovchi chiziqlar, birlamchi o‘lchov o‘zgartgichlar, o‘lchov asboblari va ijrochi mexanizmlar ko‘rsatiladi.

Funksional sxemalarni yaratishda quyidagi umumiy prinsiplarga amal qilinishi kerak. Avtomatlashtirishni loyihalash, avtomatlashtirilayotgan obyektni statik va dinamik xarakteristikalarini o‘rganishdan boshlab rostlash sifatiga qo‘yilgan talablar, tekshirilayotgan va boshqarilayotgan kattaliklar, ularning belgilangan qiymatlari, kattaliklarni o‘lchash aniqligi, avtomatik funksional sxemalarni amalga oshirishni ilmiy-texnik yechimlari, tarmoq texnologik jarayonlarini avtomatlashtirishni rivoji hozirgi zamon talabiga to‘g‘ri kelishi shart.

Avtomatlashtirishda texnik vositalarni tanlash, ya’ni birlamchi o‘lchov o‘zgartgichlar, o‘lchov asboblari, rostagichlar va ijrochi mexanizmlar texnologik jarayonni bioximik va fizik kimyoiy o‘zgarishlari texnologik kattaliklarning o‘lchash chegarasi, birlamchi o‘lchov o‘zgartgichlarning o‘rnatilgan joyigacha bo‘lgan masofa, ijrochi mexanizmlarni tekshirish

va boshqarish shitlariga joylashtirish, rostlash qonunlari va rostlashning sifat ko'rsatkichlari hamda ularni ishlatish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olinadi.

7.1. TEXNOLOGIK JIHOZLAR, ULARNING O'ZARO BOG'LANISHI, ASBOBLAR VA AVTOMATLASHTIRISH VOSITALARINING FUNKSIONAL SXEMADA KO'RINISHI

Avtomatlashtirishda funksional sxema chizmalarida texnologik jihozlar hamda ularning o'zaro bog'lanishi qisqartirilgan holatda bajariladi. Texnologik jihozlarning alohida qismalarining proporsiyalari yo'qolmagan holda hamda apparatlar va agregatlarni o'lchovlariga e'tibor bermasdan chiziladi. Texnologik bog'lanishlar gaz va suyuqlik quvurlari standart asosida chiziladi.

Agarda chizmada yuqorida keltirilgan davlat standartiga to'g'ri kelmaydigan quvurlar va bog'lanishlar bo'lsa, u holda boshqa raqam va harflardan foydalanish mumkin, faqat yangi qabul qilingan shartli ko'rinishlarga tushuntirish berish zarur. Quvurlarda oqimning harakati strelka bilan ko'rsatiladi.

Texnologik jihozlarning nomlari ularning shartli ko'rinishlari bilan chiziqlarda yoziladi yoki undan chetga chiqariladi. Texnologik jihozlar chiziqlari hamda quvurlarning bog'lanishlari avtomatlashtirishning funksional sxemalarida 0,6 dan 1,5 mm qalinlikdagi chiziqlar yordamida bajariladi.

Avtomatlashtirish vositalari va asboblarining shartli belgilari standart bo'yicha bajariladi.

7.2. TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISHNING FUNKSIONAL SXEMASINI CHIZISHDA QO'YILADIGAN TALABLAR

Avtomatlashtirilgan funksional chizmalarda shitlar va boshqarish pultlari avtomatlashtirish texnik vositalarining

shartli belgilarini joylashtirish imkoniyatini beradigan to‘g‘ri burchaklar ko‘rinishida chiziladi.

Ba‘zi asboblar va avtomatlashtirish vositalari, masalan, texnologik jihozlarda o‘rnatilgan manometrlar, boshqarish knopkalari to‘g‘ri to‘rtburchakning «Mahalliy asboblar» deb yozilgan qismiga joylashtiriladi. To‘g‘ri burchakning «Boshqarish shiti» deb yozilgan qismiga esa o‘lchov asboblari, boshqarish apparatlari, ogohlantirish qurilmalari, yordamchi apparatlar (masalan: siqilgan havo uchun filtr va reduktorlar) va ular orasidagi aloqa chiziqlari (simlari, quvurlari) joylashtiriladi.

So‘nggi vaqtarda ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologik kattaliklarni tekshirish va boshqarish uchun elektron hisoblash mashinalari qo‘llanilmoqda. Ular esa funksional chizmalarida EHM ko‘rinishiga o‘xshash to‘rtburchak shaklida chegaralanmagan o‘lchovda ko‘rsatiladi. Birlamchi asboblar sezgir elementlar bilan shitlarda o‘rnatilgan avtomatlashtirish vositalari orasidagi bog‘lanish ingichka chiziqlar ko‘rinishida beriladi.

Murakkab va katta avtomatlashtirilgan sxemalarda aloqa chiziqlari uziladi va uzilgan joyi bir xil son bilan belgilanadi (chizmaga qaralsin).

Birlamchi o‘lchov o‘zgartgichlardan boshqarish shiti va pultlarida o‘rnatilgan o‘lchov asboblarigacha bo‘lgan aloqa chiziqlariga o‘lchanayotgan yoki boshqarilayotgan kattalikning belgilangan ishchi yuqori va pastki qiymatlari ko‘rsatiladi.

Shitlarda o‘rnatilgan boshqarish apparatlaridan chiqadigan aloqa chiziqlariga, chiqadigan signalning funksional xarakterini ko‘rsatuvchi yoziladi.



Avtomatlashtirish vositalari va asboblarga pozitsiya raqamlari qo‘yiladi. Pozitsiya raqamlari shartli belgilari yonida yoki ichida arab raqamlari va kichik harflari bilan ko‘rsatiladi.

M.: Bitta kattalikni o'lchash yoki boshqarish uchun 3 raqamni qo'yiladi. Bunda birlamchi asbob – sezgir elementga – 3 a ikkilamchi o'lchov asbobiga 3 b, rostlagich – 3 v, ijrochi mexanizmga – 3 g va hokazo.

AVTOMATLASHTIRISH VOSITALARI VA ASBOBLARNI TASVIRLASH

Hozirgi paytda funksional sxemalar tuzishda tarmoq standartiga mos keladigan shartli belgilari sistemasidan foydalaniлади.

Avtomatlashtirish vositalari va asboblarning tarmoq standarti bo'yicha shartli belgilari quyidagicha:

Asbob o'rnatiladigan joy	Shartli belgisi
Texnologik quvurlari, apparatlarda o'rnatiladigan mahalligini asbob, birlamchi o'lchov o'zgartgich (sezgir element), asbob va boshqalar	
Shitda, pultlarda o'rnatiladigan o'lchov asbobi, rostlagich	
Ijrochi mexanizmning umumiy belgilanishi	
Energiya yoki boshqarish signalini berilishi to'xtatilganda rostlovchi organni ochadigan ijrochi mexanizm	
Energiya yoki boshqarish signalini to'xtatilganda rostlovchi organni bekitadigan ijrochi mexanizm	

Energiya yoki boshqarish signali to‘xtatilganda rostlovchi organni o‘zgarmas holatda saqlaydigan ijrochi mexanizm	
Rostlash organi	

O‘lchanayotgan kattalik harflar bilan ifodalanadigan shartli belgilari hamda asboblar bajaradigan funksiyalar (olingan axborotni ifodalash, kirish-chiqish signalini yaratish) 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval

Bel-gilar	O‘lchanayotgan kattalik		Asbob bajaradigan funksiya		
	Birinchi harfning asosiy qiymati	Qo‘sishimcha qiymat I-chi harfning aniqlanadigan qiymati	Axborotning ifodasi	Chiqish signali yaratish	Qo‘sishimcha qiymat
1	2	3	4	5	6
A	–	–	Signal berish	–	–
B	–	–	–	–	–
C	–	–	–	Rostlash boshqarish	–
D	Zichlik	Farq	–	–	–
E	Har qanday elektrik kattalik	–	–	–	–
F	Sarf, miqdor	Qo‘shilish	–	–	–

J	O'lchov, holat, harakat	—	—	—	—
H	Qo'l bilan ta'sir	—	—	—	O'lcha- nayotgan kat. pastki qiymati
I	—	—	Ko'rsa- tish	—	—
K	Vaqt, vaqtli dastur	—	—	—	—
L	Sath	—	—	—	O'lcha- nayotgan kat. pastki qiymati
M	Namlik	—	—	—	—
N	Zaxiradagi harf	—	—	—	—
O	Zaxiradagi harf	—	—	—	—
P	Bosim siyrakla- nish	—	—	—	—
Q	Sifat, tarkib va konsen- tratsiyani xarakter- lovchi kattalik	Jamlash vaqtি bo'yicha qo'shish	—	—	—
R	Radio- aktivlik	—	yozish	—	—

S	Tezlik, chastota	—	—	O‘l- chash, o‘chi- rish al- mash- tirib ulash, signal berish	—
T	Tempera- tura	—	—	—	—
U	Bir nechta har xil o‘lchanan- yotgan kattalik	—	—	—	—
V	Qovush- qoqlik			—	—
W	Massa (og‘irlilik)	—	—	—	—
X	Taklif etilmay- digan zaxiradagi harf	—	—	—	—
Y	—	—	—	—	—
Z	—	—	—		—

Funksional sxemada asboblarni ko‘rsatishda, uni ifodalovchi aylananing yuqori qismida o‘lchanayotgan kattalikning va asbob bajaradigan vazifaning harfli belgilari joylashtiriladi. Pastki qismida esa o‘lchov asbobi va rostlagichning xarakterlovchi sonli va harfli pozitsiya raqamlari joylashtiriladi.

Harfli belgilar asbobning (aylananing) yuqoridagi qismida quyidagi ketma-ketlikda joylashtiriladi: (chapdan o'ngga): asosiy o'lchanadigan kattalik: asosiy o'lchanayotgan kattalikni aniqlovchi (agar kerak bo'lsa) belgi asbobning bajara-digan vazifasi.

Davlat standarti bo'yicha gaz va suyuqlikning shartli raqamli belgilari va rangi 2-jadvalda keltirilgan.



2-jadval

Quvurdagi harakatlanayotgan modda	Shartli belgisi	Rangi
Suv	-1-1	Yashil
Bug'	-2-2-	
Havo	-3-3-	Havo rang
Azot	-4-4-	Qoramtil-sariq
Kislород	-5-5-	Ko'k
Inert gazlar		
Argon	-6-6-	Binafsha
Neon	-7-7-	-<<->>--<<->>-
Geliy	-8-8-	-<<->>--<<->>-
Kritson	-9-9-	-<<->>--<<->>-
Ksenon	-10-10-	-<<->>--<<->>-
Ammiak	-11-11-	Pushti
Kislota	-12-12-	
Ishqor	-13-13-	Pushti, jigar
Yog'	-14-14-	Jigar
Suyuq yonilg'i	-15-15-	Sariq
Vodorod	-16-16-	-<<->>--<<->>-
Atsetilen	-17-17-	-<<->>--<<->>-
Freon	-18-18-	-<<->>--<<->>-
Metan	-19-19-	-<<->>--<<->>-
Etan	-20-20-	-<<->>--<<->>-
Etilen	-21-21-	-<<->>--<<->>-
Propan	-22-22-	-<<->>--<<->>-

Propilen	-23-23-	-<>- -<>-
Butan	-24-24-	-<>- -<>-
Butilen	-25-25-	-<>- -<>-
Yong'inga qarshi quvur	-26-26-	Qizil
Vakuum	-27-27-	Och pushti

Texnikaga oid adabiyotlarda ko‘p hollarda funksional chizmalar davlat standarti bo‘yicha ifodalanadi. Tarmoq standarti bilan davlat standarti shartli belgilari bo‘yicha belgilangan o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini taqqoslash uchun Davlat standarti bo‘yicha belgilanishi 3-jadvalda keltirilgan.




3-jadval

Asboblar	Shartli belgililar (asosiy va ruxsat berilgani)	Masofa-dan ta’sir uzatish	Shartli belgililar
O‘lchaydigan	 	Elektrik	
Rostlovchi (signal beruvchi)	 	Gidravlik	
O‘lchaydigan, rostlaydigan (signal beradigan)		Pnevmatik Mexanik	 

Tarmoq standarti bo‘yicha asboblar va avtomatlashtirish vositalarining shartli ifodalanishi 4-jadvalda keltirilgan.

Shartli harflar, belgilar	Asbobning xarakteristikasi	Belgilanishi
A (signal berish)	Shitda o'rnatilgan, signal berish qurilmasi bilan ta'minlangan, qo'l yordamida masofadan turib boshqarish uchun mo'ljallangan apparat	
	Mahsulot og'irligini o'lchaydigan, ko'rsatadigan kontakt qurilmasiga ega bo'lgan mahalliy asbob (qurilma elektron tenzometrik yoki signal beruvchi)	
	Shitda o'rnatilgan kontakt qurilmali, ko'rsatadigan, sathni o'lchash asbobi (signal beruvchi qurilmaga ega bo'lgan, ikkilamchi ko'rsatadigan asbob Yu va P harflari yuqori va pastki sathlarni ko'rsatadi).	yuqori  past
	Radioaktivlikni o'lchaydigan, ko'rsatadigan, kontakt qurilmali mahalliy asbob (nurlari) konsentratsiyasi ruxsat berilgan qiymatdan oshganda signal beruvchi asbob.	 α, β
E (bir- lamchi o'z- gartkich)	Birlamchi o'lchov o'zgartkich (sezgir element) temperaturani o'lchash uchun mo'ljallangan mahalliy asbob (termometr qarshilik termometri, manometrik termometr, termoballoni, pirometrning sezgir elementi (datchigi)).	
	Birlamchi o'lchov o'zgartkich (sezgir element) sarf o'lchash uchun mo'ljallangan mahalliy asbob (toraytirgich, diafragma, venturi trubasi, soplosi, induksiyali sarf o'lchagich sezgir elementi datchigi).	

1	2	3
	Birlamchi o'chov o'zgartkich (sezgir element) sathni o'lhash uchun mo'ljallangan mahalliy asbob (elektrik sath o'lchagichning sezgir elementi)	LE
Q (kon-sentratsiya)	Birlamchi o'chov o'zgartkich (sezgir element) mahsulotning sifatini o'lhash uchun mo'ljallangan mahalliy asbob	pH QE
	Mahsulotning sifatini o'lhash, rostlash va ko'rsatish uchun mo'ljallangan shitda o'rnatilgan asbob (aralashmada sulfat kislota konsentratsiyasi miqdorini rostagichning o'ziyozar ikkilamchi asbobi).	O ₂ QI
	Mahsulotning sifatini o'lhash hamda qayd etish uchun mo'ljallangan shitda o'rnatilgan asbob (aralashmada sulfat kislota konsentratsiyasi miqdorini rostagich o'ziyozar ikkilamchi asbobi).	H ₂ SO ₄ QRS
U (turli xil kattaliklarni o'lhash)	Bir necha turli kattaliklarni o'lhash, qayd etish uchun mo'ljallangan mahalliy asbob, o'ziyozar differensial manometr, sarf o'lchagich, bug'ning bosimi va temperaturasini qo'shimcha yozadigan asbob.	V=f(F,P,T) VR
	Temperaturani o'lchaydigan ko'rsatishni masofaga uzatadigan mahalliy asbob pnevmatik va elektrik signal chiqaradigan (shkalasiz manometrik termometr).	TT
	Bosimni siyraklanishini o'lchaydigan shkalasiz ko'rsatishni masofaga uzatadigan mahalliy asbob (pnevmatik yoki elektrik signal chiqaradigan shkalasiz manometr, difmanometr).	PT

	Sarfni o'lchaydigan, shkalasiz, ko'rsatishni masofaga uzatadigan mahalliy asbob (pnevmatik yoki elektrik signal chiqaradigan shkalasiz difmanometr yoki rotametr).	
	Sathni o'lchaydigan, shkalasiz ko'rsatishni masofaga uzatadigan mahalliy asbob (pnevmatik yoki elektrik signal chiqaruvchi shkalasiz sath o'lchagich).	
	Aralashmaning zichligini o'lchaydigan shkalasiz ko'rsatishni masofaga uzatadigan mahalliy asbob (pnevmatik elektrik signal chiqaradigan zichlikni o'lchaydigan sezgir element).	
U (signal o'zgart-kich)	Shitda o'rnatilgan signal o'zgartkich (elektrik signal qabul qiladigan, chiqaradigan o'lchov o'zgartkich termoelektrik termometr T.E.Yu.K. ning doimiy tok signalliga o'zgartirish uchun xizmat qiladi).	
	Signal o'zgartiradigan mahalliy asbob (kirish signali pnevmatik, chiqish signali elektrik).	
	Doimiy koeffitsiyent Kga ko'paytirish funksiyasi vazifasini bajaruvchi shitda o'rnatilgan hisoblash qurilmasi.	
N(qo'l bilan ta'sir)	Qo'l bilan masofadan turib boshqarish uchun mo'ljallangan, shitda o'rnatilgan qurilma (apparat) (tugma, boshqarish kaliti, topshiriq beruvchi).	

	Masofadan boshqariladigan, shitda o'rnatilgan baypasli panel.	
	Shitda o'rnatilgan elektr o'lhash zanjirini almashtirib ulagich (boshqarish) gaz quvurlarini almashtirib ulagich (havo).	

TAYANCH IBORALAR

Ishlab chiqarish jarayoni, rostlash obyekti, avtomatik nazorat, avtomatik rostlash, avtomatik boshqarish sistemalari. Kirish va chiqish kattaliklar, g‘alayonlanuvchi kattaliklar. Funksiyalar: pog‘onasimon, garmonik va impulsli. Xarakteristikalar: statik, dinamik, chastotali va o‘tish (vaqtli). Rostlash prinsiplari, rostlash qonunlari. Datchik, rostlagich, topshiriq bergich, ijro etuvchi qurilma, mexanizm, rostlovchi organ, kuchaytirgich, shiber va to‘sqliar. Turg‘un, noturg‘un sistemalar, rostlash sifati, o‘tish jarayoni. Turg‘unlik kriteriyları: Rauss-Gurvits, Mixaylov, Naykvist kriteriyları. Rostlash vaqtı, qayta rostlash, statik xato, dinamik xato, so‘nish darajasi. Avtomatik rostlagichlar: proporsional, integral, izodrom, proporsional – differensial va PID rostlagichlar. Zvenolar: aperiodik, tebranishli, differensial, integral, kechikishli va kuchaytirish. Zvenolarni ulash: parallel, ketma-ket, teskari. Avtomatik rostlash sistemalari: astatik, impulsli, uzlusiz, bir va ko‘p konturli, stabillovchi, programmali, kuzatuvchi, bevosita va bilvosita harakatli, uzlusiz va uzlukli. Sifat kriteriyları. Rostlashning sifat ko‘rsatkichlari, boshqarish algoritmi, funksionallash algoritmi. Laplas operatori.

Avtomatik rostlash sistemasining sxemalari: principial, strukturali va funksional. Rostlash organlari: klapanlar, ventillar, zadvijkalar, zaslonkalar, shiberlar. Elektrik, pnevmatik va gidravlik bajaruvchi mexanizmlar.

ADABIYOTLAR

1. Бриллиантов В.В. «Автоматизация производства и контрольно-измерительные приборы». Москва: «Недра», 1989 г.
2. Kaminskiy M.A., Kaminskiy V.M. Avtomatlashtirish asboblari va tizimlarni montaj qilish. Toshkent: «O'qituvchi», 1997-y.
3. Mansurov A.X. «Avtomatika va ishlab chiqarish protsesslarining avtomatlashtirilishi». Toshkent, «O'qituvchi», 1987. 250 b.
4. Mansurov U. Avtomatika va paxtani dastlabki ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish. Toshkent: «O'qituvchi», 1999-y.
5. Mirahmedov D.A. Avtomatik boshqarish nazariyasi. «O'zbekiston», 1993-y.
6. «Основы автоматики и автоматизации производственных процессов в пищевых производств». Под общей редакции к.т.н. Соколова В.А. – М.: Легкая и пищевая промышленность, 1983. – 400с.
7. Полоцкий Л.М. и др. «Основы автоматики и автоматизации производственных процессов в химической промышленности». «Пищевая промышленность». 1985. – 343 с.
8. Староверов А.Г. Основы автоматизации производства. –Москва: «Машиностроение», 1989 г.
9. Чижов А.А. и др. «Автоматическое регулирование и регуляторы в пищевой промышленности». – 2-е изд. переработ. и доп. М.:Легкая и пищевая промышленность, 1984. – 240 с.
10. Чиков В.М. «Основы автоматизации предприятий торговли и общественного питания». – М.: Экономика. 1984. – 71 с.
11. Yusufbekov N.R. va boshqalar. «Avtomatika va ishlab chiqarish protsesslarining avtomatlashtirilishi». Toshkent, «O'qituvchi», 1982.
12. Yusufbekov N.R. va boshqalar «Avtomatika va ishlab chiqarish prosesslarining avtomatlashtirilishi». Toshkent, «O'qituvchi», 1997. (635 – 649 b.)

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Kirish.....	5
I bob. Avtomatik rostlash sistemalari	10
1. 1. Asosiy tushuncha va qoidalar	10
1. 2. Avtomatik rostlash sistemasining strukturasi	12
1.3. Texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqarish sistemalari	13
1.4. TJ ABS funksiyasi, strukturasi va klassifikatsiyasi	14
1.5. Oddiy va o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanadigan avtomatik rostlash sistemalarining klassifikatsiyasi	20
II bob. Avtomatik rostlash obyektlari.....	38
2.1. Rostlash obyektlarining klassifikatsiyasi	41
2.2. Rostlash obyektlaring xarakteristikalari	41
2.3. Rostlash obyektlari xossalari	43
2.4. Avtomatik rostlash obyektlarini tekshirish	47
2.5. Rostlash obyektlarining analitik yozuvi	48
III bob. Avtomatik rostlash sistemalarining analizi	53
3.1. Tipik g‘alayonlanuvchi funksiyalar	53
3.2. Sistema va elementlarning differensial tenglamasi	55
3.3. Sistemalarni uzatish funksiyasi	56
3.4. Sistemalarning vaqtli (o‘tish) xarakteristikalari	61
3.5. Sistemalarning chastotali xarakteristikalari	63
3.6. Tipik dinamik zvenolar, ularni uzatish funksiyasi	65
IV bob. Avtomatik rostlash sistemalarining turg‘unligi va sifatini aniqlash	71
4.1. Rauss-Gurvits algebraik kriteriyasi	72
4.2. Chastotali turg‘unlik kriteriyalari	74
4.3. Naykvist turg‘unlik kriteriyasi	77
4.4. Rostlash sifatini aniqlash	79
V bob. Avtomatik rostlashning texnik qurilmalari	85
5.1. Avtomatik rostlagichlar	85
VI bob. Ijro etuvchi qurilmalar	101
6.1. Ijro etuvchi qurilmalar	101
6.2. Elektrik ijro etuvchi mexanizmlar	101
6.3. Pnevmatik ijro etuvchi mexanizmlar	105
6.4. Gidravlik ijro etuvchi mexanizmlar	106

6.5. Rostlovchi organlar	107
VII bob. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning	
fuksional sxemalari	112
7.1. Texnologik jihozlar, ularning o‘zaro bog‘lanishi, asboblar va	
avtomatlashtirish vositalarining funksional sxemada ko‘rinishi	113
7.2. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning funksional	
sxemasini chizishda qo‘yiladigan talablar	113
Avtomatlashtirish vositalari va asboblarni tasvirlash.....	115
Tayanch iboralar	125
Adabiyotlar	126

ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Qayta nashr

Muharrir *T. Nazarov*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *D. Salixova*

Musahhih *Sh. Ilxombekova*

Kompyuteda sahilovchi *E. Kim*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O‘rtta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash’al mahallasi, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.

Bosishga 2016-yil 19-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
Ofset qog‘izi. «Times New Roman» garniturasи. Kegli 11.
Shartli bosma tabog‘i 6,72. Nashr tabog‘i 6,5. Adadi 640 nusxa. Buyurtma №606

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O‘rtta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash’al mahallasi, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.